

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
TURKIY TILLAR KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**MAVZU: UYG'UR VA O'ZBEK TILIDAGI MEHNAT BILAN BOG'LIQ
MAQOLLARNING QIYOSIY TADQIQI**

**Bajardi: 5220100-Filologiya(sharq tillari)ta'lif
yo'nalishi bitiruvchisi: Maxmudov Asqarxon**

Ilmiy rahbar: f.f.n. Sh.B.Sodiqova

ANNOTATSIYA: Bitiruv malakaviy ishida uyg'ur tilidagi mehnat bilan bog'liq maqollarni o'zbek tilidagi maqollar bilan farqli va o'xshash joylari va mazmuniy maydoni yoritib berilgan. Har ikki tildagi mehnatga aloqador mazmunni tashuvchi maqollarning semantik – funksional jihatlari o'r ganilgan.

TOSHKENT 2013

**UYG'UR VA O'ZBEK TILIDAGI MEHNAT BILAN BOG'LIQ
MAQOLLARNING QIYOSIY TADQIQI**

MUNDARIJA

I. KIRISH

II .ASOSIY QISM

**I BOB. UYG'UR VA O'ZBEK TILIDAGI MEHNAT BILAN BOG'LIQ
MAQOLLARNING SEMANTIK -FUNKSIONAL JIHATLARI**

- 1.1. Uyg'ur va o'zbek tilida maqollarning mazmuniy maydoni
- 1.2. Uyg'ur va o'zbek tilida maqollarning semantik-funksional guruhlari

**II BOB. UYG'UR VA O'ZBEK TILIDAGI MEHNAT BILAN BOG'LIQ
MAQOLLARNING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI**

- 2.1. Uyg'ur va o'zbek tilida maqollarning mazmuniy maydonining mos va farqli jihatlari
- 2.2. Uyg'ur va o'zbek tilida maqollarning semantik-funksional guruhlanishdagi o'xshashlik va tafovutlar

III. UMUMIY XULOSALAR

IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

V. Ilova. Lug'at

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin, O‘zbekiston jahonga yuz tutib, tobora yuksalish, yangilanish jarayoniga kirib kelganligi, fan va madaniyatning millat manfaati uchun xizmat qilmaydigan mafkura iskanjasidan qutilganligi olimlarimiz oldiga g‘oyat muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Istiqlol tufayli nafaqat ajdodlarimiz merosiga, balki qardosh xalqlar merosiga, fanning zamonaviy muhim muammolariga dadilroq yondashish, zamondoshlarimiz ijodi bilan bir qatorda turli xalqlarning ilm-fan va madaniyati yutuqlarini teranroq tadqiq etishga va hayotimizga tadbiq etishga ya’ni jamiyatimizning barcha jabhalarini yanada rivojlantirishga imkoniyatlar kengaydi.

Maqol xalqning ko‘p asrlar mobaynida ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to’plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo’lgan og’zaki ijod janrlaridan biridir. “Maqol atamasi arabcha (قول) – qavlun – gapirmoq, aytmoq so’zidan olingan bo’lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo’llaniladi. Barcha tomodan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil etadi”¹.

Maqol o’z tabiatiga ko’ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o’z maqollariga ega bo’lmanan xalqning o’zi yo’q. Chunki, har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og’zaki ijodida mazmun va shakl jihatidan bir – biriga yaqin hamda hamohang maqollar ko‘p uchraydi. Chunki, har bir xalq hayoti va tarixida juda ko‘p o’xshashliklar va umumiyliliklar mavjud.

Ayniqsa, bir biri bilan yaqin yashovchi xalqlar og’zaki ijodi mahsullari o’xshash. Masalan, o‘zbek va uyg‘ur xalqlari yaqin qo’shni bo‘lganliklari uchun uzoq yillar davomida shakllangan turmush tarzi, uning o’xshash qirralari xalqlar og’zaki ijodi mahsullarida o‘z aksini topadi.

¹ O‘zbek xalq og’zaki poetik ijodi. Q. Imomov, B. Sarimsoqov. Tosh. 1990. Maqollar – 91-bet.

“Maqollar voqelikni xalqning bevosita ana shu voqelik haqidagi xulosalari, hukmlari orqali aks ettiradi. Demak, maqolda voqealarning kechishi emas, balki ular haqidagi xulosalari va hukmlari ifodalananadi.”²

“Xalq maqollari bevosita mehnat jarayonida, qaynoq hayot quchog’ida yaratilganligi sababli ularda mehnat mavzui yetakchi o’rinni egallaydi. Mehnat mavzuidagi maqollarda mehnatga muhabbat, hurmat, ishyoqmas, dangasa va tekinxo’rlikni qoralovchi xalqning xulosalari mujassamlashgan.”³ “**Mehnat, mehnatning tagi rohat**”; “**Mehnat – rohatning poydevori**”, kabi maqollar ana shular jumlasidandir. Shuningdek, mehnat so’zining azob-uqubat, baxtsizlik ma’nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin: “**Mehnat ham egiz-egiz, Davlat ham egiz-egiz.**”

So’z san’atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so’zning o’nlab ma’no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko’chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin.

“Maqollarda botirlik, saxiylik, adolat, insof, otashin sevgi, vafodorlik, muruvvatpeshalik, do’stlik, donolik kabi insoniy xislatlar ham ulug’langan. Qolaversa, xalq maqollarida hukmron sinflar dunyoqarashiga xos xislatlar, din ahllari va oddiy xalq o’rtasidagi munosabatlar, xalqning mateoralogik kuzatishlari va vaqt ni qadrlash tog’risidagi kuzatishlari juda ham yorqin aks etadi.”⁴

Xullas xalq maqollarining mazmuniy doirasi keng qamrovli bo’lib, ularda ijtimoiy hayot voqealari va tabiat hodisalariga aloqador xalqning barcha hukm va xulosalari tajassum topgan.

“Inson real voqelik haqidagi o’z kuzatish hamda tajribalarini bevosita maqollarda ifodalaydi. Binobarin maqollar xazinasini doim boyib borishini

². O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi. B. I. Sarimsoqov Q. Imomov, T. Mirzayev. Tosh. 1990. Maqollar – 91-bet.

³ O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi. B. I. Sarimsoqov Q. Imomov, T. Mirzayev. Tosh. 1990. Maqollar – 94-bet.

⁴. O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi. B. I. Sarimsoqov Q. Imomov, T. Mirzayev. Tosh. 1990. Maqollar – 94-bet.

taminlovchi manbalardan biri ijtimoiy hayotning o‘zidir. Tarix saxnasida amal qilayotgan har bir xalq bevosita boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan aloqada yashaydi, rivojlanadi. Mana shunday aloqalar jarayonida xalqning maqollar xazinasi o‘zga xalqlar materialining o’tishi hisobiga boyib boradi. Demak, xalq maqollarining boyib borishini taminlovchi vositalardan biri – xalqlar o’rtasidagi o’zaro aloqalar hisoblanadi.”⁵

Hayotda davomiylik mavjud ekan, har bir xalq yashar ekan, uning maqollar xazinasi doim boyib, rang-baranglashib boradi.

Xalq maqollarida badiiy ifoda hamda tasviriy vositalar rang-barang bo’lib, ular asar mazmunini reallashtirish, maqolning izchil g’oyaviy funksiya ado etishiga imkon beradi. Mazkur masalalar tatqiqiy ishimizning **dolzarbligini belgilaydi**.

Bitiruv malakaviy ishining manbaları. Uyg’ur maqollarini o’rganish bo’yicha bizga eng asosiy manba bo’lib xizmatqilayotgan adabiyotlardan Ablaz Amat tomonidan tuzilgan “ئۇيغۇر خەلق ماقال – تەممىسىللىرى ئىز اھلىق لۇغۇتى” hisoblanadi. Bu kitobni 2001 – yili Qashqar uyg’ur nashriyoti tomonidan nashr qilindi. Shunday ekan, bu kitobga 4000 dan ortiq maqol matallar kiritilgan, kiritilgan har bir maqol matallar manbalarga asoslangan, shuningdek, berilgan izohlarning mutloq ko’pchiligida istemol ma’nosi asos qilinib, tushinarlik bo’lishligi ilgari surilgan holda izohlanadi. Lug’atdagı izohlarning ixcham va to’g’ri bo’lishligiga alohida ahamiyat berilgan. Lug’atdagı maqol – matallar hozirgi zamon uyg’ur adabiy tilining arab shriftida yozilgan va ularni alifbo tartibi bo’yicha tizilgan. Undan tashqari Muhammad Rahim 1950 – yillardan boshlab bu yo’nalish bo’yicha izlanib “ئۇيغۇر خەلق ماقال – تەممىسىللىرى”ni to’plash tartibga keltirish borasida ko’p mehnat singdirgan hamda 1983 – 1990 – yillari maqol matallarni nisbatan mukammal bo’lgan maqol matallar to’plamini nashr qildirdi.

⁵. O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi. B. I. Sarimsoqov Q. Imomov, T. Mirzayev. Tosh. 1990. Maqollar – 94-95-bet.

O`zbek xalq maqollarini manbasi bo`lib Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovlar tomonidan tuzilgan, 1990 – yilda nashr qilingan “Hikmatnoma” deb nomlangan o`zbek maqollarining izohli lug`ati hisoblanadi.

Mavzuning o`rganilganlik darajasi. Uyg`ur xalq maqol matallari uy`gur xalqining uzoq zamonlardan bari bizga qoldirgan madaniy merosini izlanishlar davomida ko`rish mumkin. Ozodlikdan keyin hukumatning bu sohaga nisbatan e`tibori bilan uyg`ur xalq maqol matallarini toplash, tartibga keltirish, nashrga tayyorlash ishlariga katta ahamiyat berib ulkan ishlar olib borildi. Shuningdek bu harakatlar natijasida ulkan ishlar qo`lga kiritildi. Misol qilib aladigan bo`lsak, hozirga qadar har qaysi viloyat, shahar, rayonlarni asos qilga xalq og`zaki adabiyotini toplash – tartibga keltirish guruhlari har qaysi joylarning yerlik maqol matallarini to`plam qilib nashr qildirdi va nashr qildirib kelmoqda. Undan tashqari Muhammad Rahim 1950 – yillardan boshlab bu yo`nalish bo`yicha izlanib uyg`ur xalq maqol matallarini toplash tartibga keltirish borasida ko`p mehnat singdirgan hamda 1983 – 1990 – yillari maqol matallarni nisbatan mukammal bo`lgan maqol matallar to`plamini nashr qildirdi. 2001 – yili Abliz Amat tuzgan “Uyg`ur xalq maqol matallari izohlik lug`ati” nashr qilindi. Hozirga qadar nashr qilingan uyg`ur xalq maqol matallariga oid har xil to`plamlar bir necha o`n parchadan ortiq.⁶

Bu bilan birga uyg`ur xalq maqol matallarining tartibga keltirish tadqiq qilish ishlari ham juda chuqurlashdi. Uyg`ur xalq maqol matallarining to`planib nashr qilinishi bilan bu haqdagi tadqiqot va maqolalari ham ko`p marta e`lonlar ham qilindi. Jumladan Uyg`ur xalq maqol matallarining o`zgacha alohidaligi, ulardagi falsafiy fikrlar, ilmiy qarashalar, uyg`ur xalq maqol matallarining tuzilishi o`zgacha alohidaligi, uyg`ur xalq maqol matallarini boshqa tillarga tarjima qilinishi

⁶ ئىلھام نىزام. ئۇيغۇر خەلق ماقال - تەمسىلىرى. شىنجان خەلق نەشرىيەتى. 1979 - يىل 2 - ئاي.

kabi mazmunlardagi maqolalar e'lon qilinib, uyg'ur xalq maqol matallari haqidagi tadqiqotni chuqurlashtirishda muhim ro'l o'ynaydi.⁷

Uyg'ur xalq og'zaki adabiyoti o'zining boyligi xilma – xilligi va tarixiy ahamiyati bilan qimmatlik milliy meroslarimizdan biri bo'lib keldi. Og'zaki adabiyotimizning muhim tarkibiy qismi bo'lgan maqol – matallar keng va chuqur mazmunga ega. U xalq orasida eng keng tarqalgan maqol – matallar xalqning o'tmishdagi hayotini, dunyoqarashini, fazilatlarini, urf – odatlarini va mijoz xulqini aks ettirganligi uchun shu xalqning tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Mashhur uyg'ur olimi Mahmud Qoshg'ariyning 11 – asrda yozilgan “devon- ul lug'atit turk” nomli klassik asarida xalq maqol matallariga ko'p o'rinn berilgan.

Izlanishlar davomida uyg'ur xalqi adiblari orasida katta e'tiborga sazovor shuningdek talant sohibi bo'lgan Toyibjon Aliyevning o'z ijodiyotida xalq maqollari va matallaridan mohirlik bilan foydalanib o'tganligi, uning ko'plab qilgan ishlarini mos baholagan. Xalq maqol – matallari, qo'shiq va rivoyatlarini yaxshi o'rgangan va bu bilimlardan hayoti davomida har qanday vaziyatga mos holatda undan ko'chirma va ijodiy holda foydalanishini Muhammad Rahim o'zining “ئۇيغۇر خەلق ماقال - تەمسىللىرى”⁸ kitobida ta'kidlab o'tadi.

Uyg'ur xalqi orasida hususan xalq og'zaki ijodi namoyondalari orasida hurmatga sazovor bo'lgan Ilhom Nizom tomonidan ham maqol va matallarga doir kitoblar nashr qilingan. Hususan 1957 - yil fevral oyida “ئۇيغۇر خەلق ماقال - تەمسىللىرى” nomli kitobni nashr qilingan edi va bu kitobni 1979- yil shinjon xalq nashriyoti tomonidan qaytadan nashrga tayyorlashgan. Bu kitobni nashrga tayyorlovchilar hajm jihatdan yana bittaga oshirildi, mazmun jihatdan ham muvofiq turga ajratgan holda bu maqollar to'plami kitobi nashr qilindi.

ئالىم ھەممىت ۋە ئايگۇل تۈرسۇن. **ئۇيغۇرچە - خەنزوچە ئۇيغۇر خەلق ماقال تەمسىللىرى.** بېيىجىڭ مىللەتلىرى.

نەشرىياتى. 2006- يىل 4- نايدە

ئىلھام نىزام، مۇھەممەد رەھىم. **ئۇيغۇر خەلق ماقال - تەمسىللىرى.** شىنجان خەلق نەشرىياتى. 1979 - يىل 2 - . ئاي.

Maqollar xalqning uzoq davrlar mobaynida o'z tajribasidan o'tgan, ming karra sinalgan donolik qomusi bo'lib, u kishilarni ezgulikka, oljanoblikka undashi, insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik hamda tinch totuv yashashga chorlashi bilan hamma vaqt hayot darsligi bo'lib xizmat qiladi.

“Maqollar ulardan anglashiladigan tushunchalarga qarab joylashtirilsa, xalq ruhiyatining chinakam ocherki vujudga keladi”, deb yozadi taniqli rus tilshunosi va paremeologi V.I.Dal. ^{“9}

Maqollar mag'ziga ularni yaratgan xalqning asriy hayoti, dunyoqarashlari, urf-odatlari singib ketgan. Modomiki shunday ekan, maqollarning tarixiy ildizlarini aniqlash, ularning g'oyaviy-mazmuniy jihatini ochib berish ko'p izlanishni, uzoq yillar mobaynida sabr toqat bilan ish olib borishni taqozo etadi.

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shaklga ega, ammo teran mazmun kasb etadigan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisol bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, eskilarining — jonli muomalada, tilda mavjudlarining ma'no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Chunki o'zbek xalqining bunday ulkan folklor merosi folkloristik nuqtayi nazardan keyingi asrlargacha deyarli to'planmay va o'rganilmay kelgan. Bundan xalq maqollari o'tmish adiblari,

⁹. Даль В. И. О русских пословицах // Современник, 1847. – 16. – 148 – бет.

shoirlari, tarixchilari e'tiboridan mutlaqo chetda ekan, degan xulosa chiqarmasligimiz kerak.

Hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish billan ham nagslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir. Hikmatli so'zlar, maqollar - noma'lum shoirlarning yurak satrlari, xalq istedodining masofa bilmas shu'lalari, zulm, adovat, xaqsizlik ko'ksiga sanchiluvchiadolat tig'idir. Hikmatli so'zlar , maqollar – hech bir podshoh qilmaga n farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir.¹⁰

Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan.

Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Hamza, Sadreddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta'bir joiz bo'lsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi epizodik xarakterda bo'lsa-da, munosabatda bo'lingan hollarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning to'plovchilik faoliyati va uning «Devoni lug'otit turk» asari bunga yorqin misol bo'la oladi. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Bu o'rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta'kidlab o'tish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor. O'zbek xalq maqollariga

¹⁰ . Erkin Vohidov.

muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya-lug'atiga o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan. Shundan keyin birin-ketin N. Ostroumov (1895), B. Rahmonov (1924), Sh. Jo'rayev (1926), H.Zarifov (1939, 1947), B. Karimov (1939), Sh. Rizayev, O'.Azimov, O'. Xolmatov (1941), M. Afzalov, S. Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R. Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986), R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984), Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, A Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi. M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyorov, R. Rasulov kabi olimlaming tilshunoslik va tarjtmashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Y. Chernyavskiy, V. Ro'zimatov (1959), N. Gatsunayev (1983, 1988), A. Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida bosilib chiqildi.

Turli davrlar, turli yillarda bunday to'plamlarning nashr etilishi xalq maqollarini to'plash, ularga muayyan bir tartib berish, ulardagи umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu to'plamlardagi faktik materiallar, asosan, bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi, mavzularga ajratilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, M. Afzalov boshchiligida tayyorlangan to'plamning keyingi nashriga 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga bo'lib berilgan bo'lsa, R. Jumaniyozov to'plamining so'nggi nashrida 1047 maqol 22 mavzu ostida jamlangan. Yoki B. Rahmonov to'plamiga 564, Sh. Jo'rayev to'plamiga 711 maqol kiritilgan, xolos. O'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-

akademik nashrini tayyorlash bo'ldi. 1987—1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan bu to'plam o'n uch mingga yaqin xalq maqolini o'z ichiga oladi. To'plam folklorshunoslikda to'plangan xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi boy tajriba asosida tuzildi hamda hozirgacha mayjud materiallarni nisbatan to'laroq qamrab olishga harakat qilindi. To'plam keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallanganligi uchun ham bu yerda maqollarning ilmiy-badiiy tahliliga keng o'rin berishga zarurat yo'q. Ammo to'plamdan foydalanishni osonlashtirish maqsadida maqolga xos bo'lgan ayrim jihatlarni alohida ta'kidlab o'tish zarur. Maqollarning jonli jarayonda, vaziyatga qarab qo'llanilishidan mazkur ishinmizga xos yana bir xususiyat kelib chiqadi, ya'ni ba'zi maqollar misralar o'rni almashgan holda mavzularda takrorlangan. Bu ish hajmini sun'iy ko'paytirish uchun o'ylab chiqilgan narsa emas. Ishdagi barcha maqollar xalqdan yozib olingan va ular O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining folklor arxivida saqlanadi. Ana shu qatorlar almashuvi, hatto so'zlar, iboralarning o'rin almashuvida ham ma'no o'zgachaligi yuzaga keladi.¹¹

Ilmiy yangiligi. Izlanishlarimiz davomida, uyg`ur va o`zbek tilidagi aynan mehnat bilan bog`liq maqollarni qiyosiy tadqiq etishda biz ikki asosiy yangilikni ochishga muvaffaq bo`ldik. Bunda har bir maqollarni qiyoslashda ularning semantik va sintaktik funksional jihatlarini yoritishga harakat qildik.

1. Bu mavzu doirasida uyg`ur va o`zbek tillarining qiyosiy tahlili amalga oshirildi.
2. Uyg`ur va o`zbek tillaridagi mehnatga aoqador xalq maqollarining o`xshash va farqli jihatlari ajratildi.

¹¹ .O`zbek xalq maqollari, Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririysi, 2005-yil. (Tuzuvchilar: T.Mirzayev,A.Musoqulov, B.Sarimsoqov).

Ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi uyg'ur tilidagi mehnat bilan bog'liq maqollarni o'zbek tilidagi maqollar bilan qanday farqli va o'xhashlik joylari va mazmuniy maydonini yoritib berishdir.

Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar ado etildi:

1. Mehnat bilan bog'liq maqollar har ikki tilda to`plandi.
2. Har ikki tildagi mehnatga aloqador mazmunni tashuvchi maqollarning semantik – funksional jihatlari o`rganildi.
3. Uyg`ur va o`zbek tillaridagi mehnatga aloqador maqollardagi farqli va o`xhash jihatlar saralandi.

Ishning obekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishimizning obyekti qilib uyg`ur va o`zbek tillaridagi mehnatga aloqador maqollar tanlandi. Har ikki tildagi mehnat mazmuni bilan bog'liq maqollardagi farqli va o`xhash hususiyatlar qiyosiy tadqiq etilganligi ishimizning predmetini belgilaydi.

Nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishimizning **nazariy** ahamiyati shundaki, uyg`ur va o`zbek xalq maqollaridan mehnatga aloqador bo`lgan qismini qiyosiy o`rganilganligi uyg`ur tilini o`qitishda qo'l keladi. Ayan shu mavzuga aloqador mazmuniy maydon nazariyasiga oid fikrlar bayoni uyg`ur tili grammatikasi uchun nazariy material vazifasini o`taydi. Uning **amaliy** ahamiyati tadqiqot natijasida yaratilgan uyg`ur – o`zbek tilidagi mehnatga aloqador xalq maqollaritilining izohli lug`ati uyg`ur tilini o`rganuvchi talabalarga amaliy mashg`ulotlarda tilni mufassalroq o`rganishga yordam beradi.

Tarkibiy tuzilishi. Ilmiy ishimiz odatdagidek kirish, asosiy ikki bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovadan iborat.

I BOB. UYG`UR VA O`ZBEK TILIDAGI MEHNAT BILAN BOG`LIQ MAQOLLARNING SEMANTIK FUNKSIONAL JIHATLARI

1.1. Maqollarning mazmuniy maydoni

Ma’no (mazmun) umumiyligi bilan birlashgan va belgilayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funksional) o’xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan leksik birliklar) yig’indisi maydon deb nomlanadi.¹²

Semantik maydon barcha birliklarni birlashtiruvchi umumiyligi semantik alomat borligi bilan harakterlanadi va odatda, umumlashgan ma’noli leksema bilan ifodalanadi. Masalan maqol maydoniga kiruvchi birliklar.

Bundan tashqari, bu birliklarni maydon tarkibida bir – biridan ajratuvchi xususiy sxemalari bo’ladi.

O’zbek tilshunosligida leksikani mazmuniy maydon sifatida o’rganish, mazmuniy maydonning tuzilishi, uning birliklari o’rtasidagi munosabatlar,

¹² . Лингвистический энциклопедический словарь. М. советская энциклопедия. 1990. С. 380.

maydonlarning bir – biri bilan munosabati singgari masalalar Sh. Iskandarova va A. Sobirovlarning tadqiqida¹³ yetarlicha o’z talqinini topgan.

Biz mazkur tadqiqotimiz davomida xalq og`zaki ijodining mahsuli bo`lmish maqollarni mazmuniy jihatdan maydon nazariyasia asosida tadqiq etishga harakat qildik. Mehnat mazmuniy guruhini tashkil etuvchi maqollarni bir yaxlit mazmuniy maydon sifatida olib, uning yadro va pereferiyasida joylashgan maqollarni o`rgandik. Masalan ma’lum leksemalar sinoimik qatorni tashkil etadi. Xuddi shunday maqollar ham semantic jihatdan maydonda birlashishi mimkin. Misol tariqasida quyidagilarni ko`rib chiqsak:

“Mehnat, mehnatning tagi rohat” o`zbek xalq maqoli mazmuniga yaqin unga variantdosh bo`lgan “Mehnat qilib topganing - qandu asal- totganing”, “Mehnat – rohatning poydevori”; “Rohatning onasi - mehnat”, “Obro’ning onasi - mehnat , otasi- sayi harakat”, “Suvsiz hayot bo’lmas , mehnatsiz rohat”; “Mehnatsiz rohat yo’q”; “Mehnat qilmay rohat ko’rmas, urug’ sepmay ekin o’rmas”. maqollar bilan birgalikda yaxlit olinib bir mazmuniy maydon doirasida birlashadi. Shunda maydon yadrosidan **Mehnat, mehnatning tagi rohat maqoli** joylashadi qolganlar esa mazmuniy yaqinligiga qarab maydonning yaqin va uzoq pereferiyalaridan o`rin.

1.2. Uyg’ur va o‘zbek tilida maqollarning semantik-funksional guruhlari

Bitiruv malakaviy ishimizning qiziqli qismi bo`lgan uyg’ur va o‘zbek tilidagi maqollarining guruhlarga bo`lishlikda ularni asosiy yetti qismga bo`lindi. Bu o`rinda, ularning mazmuniy mohiyatiga tayangan holda ajratildi. Shunday ekan:

- Mazmuni mehnat bilan bog’liq maqollar
- Mazmuni ish bilan bog’liq maqollar.
- Mazmuni hunar bilan bog’liq maqollar.

¹³ . Iskandarova . Sh. O’zbek tili leksikani mazmuniy maydon sifatida o’rganish. Fil. F. d. diss. Avtoref. Toshkent 1999; Sobirov .A. o’zbek tili leksik satxini sistemalar sistemasi sifatida tadqiq etish. Toshken ; ma’naviyat, 2004

- Mazmuni ishyoqmaslik, dangasalik, erinchoqlik va bekorchilik kabi xislatlar bilan bog'liq maqollar.
- Mazmuni jafo va mashaqqat bilan bog'liq maqollar.
- Mazmuni kuch- qudrat va quvvat bilan bog'liq maqollar.
- Mazmuni dehqonchilik, chorvachilik, bog'bonchilik va mo'l – ko'lchilik bilan bog'liq maqollar.

Kabi guruhlarni o`z ichiga qamrab olgan.

1. Mazmuni mehnat bilan bog'liq maqollar

مېھنمەت، ئۇنىڭ تەگى راھەت.

Mehnat, uning tagi rohat

Bu har bir insonning hayoti davomida ter to'kib, jafo va mashaqqat orqali haqiqiy huzur halovat ya'ni baxtli farovon hayotga erisha oladiganligini bildiradi. Insoniyat bosib o'tgan uzundan – uzoq yo'l mehnat jarayonidan iboratdir . Inson o'zining jamiki boyliklarini mehnat faqat mehnat tufaylidan yaratadi. Shu boisdan kishilar mehnatni qadrlaydilar , ulug'laydilar , yosh bo'g'lnlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydilar. Shu boisdan jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi uyg'ur va o'zbek xalq maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rnlardan birini egallaydi. Quyida mehnat mavzusiga aloqador maqollar va ularning variantlarini:

"مېھنمەت يەردە قالماس، مېھنمەتسىز راھەت بولماسى."

Mehnat yarda qolmas, mehnatsiz rohat bo'lmas

"مېھنمەت قاتتىق، مېۋسى تاتلىق"

Mehnat qattiq, mevisi totliq

"مېھنمەت باشلار گۈلستانغا، ھورۇنلۇق تاشлار گۈرۈستانغا"

mehnat boshlar gulistonga, ho`runliq tashlar go'ristong'a

"مېھنمەت دوستى كۆپمەيتىر، غىيىۋەت دۇشمەمنى."

mehnat do'stni ko'paytar, g'iyyat dushmanni

"مېھنەتى بارنىڭ شۇھەرتى بار، شۇھەرتى بارنىڭ دۆلەتى بار."

mehnati borning sho'hrati br, sho'hrati borning davlati bor

"مېھنەتتە ئالدىدا بولغان، مىننەتنى نىرى بولار."

mehnatti oldida bo'lg'on, minnattin neri bo'lar

"مېھنەتكەشنىڭ سوغىسى بىللە، ھاراڭكەشنىڭ غوغىسى بىللە."

Mehnatkashning sovg'isi billa, haraqkashning g'ovg'isi billa

"مېھنەتسىز كىشى ئاغرسا ساقاييمىس."

Mehnatsiz kishi og'risa soqaymas

"مېھنەتسىز تاپقان مال – ھىساپسىز كىتەر."

Mehnatsiz topqan mol – hesopsiz ketar

"مېھنەتسىز ئۆمۈر – دات باسقان تۆمۈر."

Mehnatsiz o'mur – dot bosqon to'mur

"مېھنەتنى قاچما، مىننەتنى قاچ."

Mehnattin qochma, minnattin qoch

Bu baxtli turmush kechirishni orzu qilgan kishi ish – mehnatdan bosh tortmay, halol ter to'kish kerakligini, aks holda dangasa, ish yoqmas, bekorchi bo'lib, ta'na – dashnomga qolishdan saqlanishning zarurligini bildiradi.

ئالتۇن ئوتتا، ئادەم مېھنەتتە بىللىنەر.

(oltin o'tta, odam mehnatta bilinar)

Bu oltinning sofligi yoki sof emasligi tovlaganda malum bo'lganidek, odamning ham ishchan yoki dangasa ekanligi ish, mehnatda ma'lum bo'ladi, degan ma'noni bildiradi.

ئەمگەكىڭ ئىنى تاتلىق، ھورۇنىڭ جىنى (تاتلىق).

(amgakning neni totliq, ho'running jeni totliq)

Bu jafo va mashaqqatdan qochmay ishlab erishgan nemat kishiga lazzat, huzur bag'ishlaydi; ish xush yoqmaydigan erinchoq odam och qolsayam bekor yurishni xohlaydi, degan manonni beradi

ئەمگەك بىلەن ئەر كۆكىرەر، يامغۇر بىلەن يەر.

(amgak bilan ar ko'kirar, yomg'ir bilan yar)

Bunda mehnat insonlarga baxt ato qilishi, mehnat qilgan, ishlagan odam shod- xurram yashaydi; suv va yomg'ir hayvonotu nobotot uchun hayot bag'shlaydi, suvu- yomg'irga qongan yer yashillikka burkanib, chamanzorga aylanadi, degan ma'noni bildiradi

ئەمگەك قىلساڭ ئاتقىڭ چىقار، قىلمىسالىڭ چاتقىڭ چىقار.

(amgak qilsong otiqing chiqar, qilmisang chotiqing chiqar)

Bu mehnat qilgan, ishlagan odam oz erishgan yutuqlaridan huzurlanib, shod xurram, kongullik yashab, shon-shuhrat va yaxshi nom qozonadi; mehnatni hohlamaydigan, ishlamaydigan, ishdan qochadigan odam dangasa fel atvori bilan kishilarga ovorachilik, mushkulot tug'diradi degan ma'noni bildiradi.

ئەمگەك قىلساڭ – يەر سىخى.

(amgak qilsang – yar sexi)

Bu insonlar uchun tugamas bir boylik. Har kim jafodan qochmay, yerga mehr bilan ishlasa, manfaatga erishadi, hargiz quruq qo'l va noumid qolmaydi, degan ma'noni bildiradi.

2. Mazmuni ish bilan bog'liq maqollar.

باشتا قاتتقى ئىش، ئاياغىدە تاتلىق ئىش.

(boshta qattiq ish, oyog'da totliq ish)

Bu jafo-mashaqqatdan qochmay, vaqtqi qdriga yetib halol ter to'kib ishlangan ishning oqibati huzur – halovatli bo'lib, baxt quchoq ochadi, odam qilgan ajrining, tortgan jafosining rohatini ko'radi, degan ma'noni bildiradi.

تەبىyar ئىشنىڭ بىشىغا، ئاسان كېلەر قىشىغا.

(tayyor ishning beshig'a, oson kelar qeshig'a)

Bu degani boshqalar tarafidan tax qilingan ishning natija – mevasiga har kimning kuch sarflamasdan ega bo'l nisi kelishini bildiradi.

ئىشلەگەنگە ئەر قىرىماس، تېرىغانغا يەر قىرىماس

(ishlaganga ar qerimas, terig'ang'a yar qerimas)

Bu yerga ishlagansari kuchayib, quvvati oshadi, odam ishlagansari pishib chiniqadi, turmush to'kin sochin bo'ladi degan ma'noni bildiradi.

ئىشنىڭ ئاسىنى يوق، قىلالسالق قىيىنى يوق.

(ishning osoni yo'q, qilolsang qiyini yo'q)

Bu ishning barchasi mashaqqatli, mushkul bo'lishligini, ishslashning epini bilgan, ishchan odamga hamma ish oson bitishligini bildiradi.

ئىش قىلاسالق پۇختا قىل، خام قىلما.

(ish qilsang puxta qil, xom qilma)

Bu biror ishga kirishganda qiyinchilikka bosh egmay, ishning son- sifatiga astoydil kafolatlik qilib ko'ngildagidek natija yaratish kerakligini bildiradi; men har kuni uzoq yo'l yurib, bozorga o'tin olib borib sotaman, uning badaliga birmuncha non keladi, shu bilan o'tgan kunimga shukir qilib yashab yuraman, debdi boboy. Uning gapini anglagan bir yo'lovchi bir oz o'ylanib turib

<<ئىش قىلاسالق پۇختا قىل، خام قىلما.>> debdida yo'liga ravona bo'libdi.

ئىشى يوقنىڭ كارى يوق.

(ishi yo'qning kori yo'q)

Bu dangasa, bekorchi odam boshqalarining g'amini yemaydi, odamgarchilikni aslo bilmaydi, degan ma'noni bildiradi.

3. Mazmuni hunar bilan bog'liq maqollar.

ئەر كىشىگە يەتمىش تۈرلۈك ھۇنەر ئاز.

(ar kishiga yatmish turluk hunar oz)

Bu har qanday odam yoshlidan boshlab fursatni boy bermay, koplab bilim olishi, kasb- hunar o'rganishi kerakligini, qanchaki ko'p o'rgansa ko'plik qilmasligini, balki kelajagiga foydali ekanligini bildiradi.

ھۇنەر - ھۇنەردىن بەرەكەت ئۇنەر.

(hunar – hunardan barakat unar)

Bu kasb – texnika hayotda tirikchilikning yaxshi kafolati ekanligini, kasb bilan shug'ullangan odam yetarli darajada foydaga erishadiganligini bildiradi; uning dadasi “nimalar bo'lган bo'lsa , hunarning barakatidan, > هونمر - هونمر دен بемекت < ئونمر

Degan hayol bilan uni o'zining duradgor do'sti Sulaymon ustaga shogirdlikka berdi. Buni quyidagi variantlari ham bor;

هونمر - قىلسە ئونمر .

(hunar – qilsang unar)

Bu har kim tirikchilikni hunar – texnikaga tayanib qiladigan mehnatini olib borsa tugamas foydaga erishadi degan ma'noni bildiradi; biz yiliga ikki yuz ellik s'om qarz berib turaylik deyishdi, bu pulning malum bir qismiga ikki qo'y olib boqib, qolgannini dasmoya qilib qo'shimcha mozdo'zlik bilan shug'ullansak iqtisodiy jihatdan o'zlarini o'nglab olishi mumkin, chunki "hunar- qilsa unar" degan gap bor emasmi! Dedi u Emin akaga.

هونمر لىك ئەر خار بولماس، دوست-دۇشمنگە زار بولماس.

(hunarlik ar xor bo'lmas, do'st – dushmanga zor bo'lmas)

Bu degani tirishib, jiddu jahd qilib hunar - kasb egallagan odam moddiy boylikka , shon – sharafga va hurmatga tuyassar bo'ladi, hechkimga yalinmaydi, degan ma'noni bildiradi.

هونرى يوق كىشىنىڭ، مەززىسى يوق ئىشىنىڭ.

(hunari yo'q kishining, mazzisi yo'q ishinig)

Bu hechqanday hunar texnika egallamagan odam har qancha mehnat qilsin, harqancha tirishsin ishlarining ilgarilashi bo'lmaydi, umri ma'nisiz otadiganligini bildiradi.

4. Mazmuni ishyoqmaslik, dangasalik, erinchoqlik va bekorchilik kabi xislatlar bilan bog'liq maqollar.

ئاش بولسە ئىش بولمسا، ياز بولسە قىش بولمسا.

(osh bo'lsa ish bo'lmisa, yoz bo'lsa qish bo'lmisa)

Bu ishlamay bekor yurib yeb ichishni yaxshi ko'radigan, o'yin- kulgu, rohat-farog'atni hohlaydigan, ishni xush ko'rmaydigan, dangasalik psixikasiga ega bo'lgan kimsalarni bildiradi. Bu maqolning bunday variantlari ham mavjud:

ئاشنى كورسه ئىچىڭ تاز، ئىشنى كورسه قىچىڭ تاز.

(oshni ko'rsa iching toz, ishni ko'sa qeching toz)

بىكارنىڭ چولىسى يوق، قىلغىلى ئىشى يوق.

(bikorning cho'lisi yo'q, qilg'ili ishi yo'q)

Bu ish xush yoqmas, bekorchi odamlar ish topilsa ham ishlashni hohlamaydigan, kun bo'yi bekor yurishni yashi ko'radi, degaan manoni bildiradi.

بىكار تۇر غېچە، بىكار ئىشلە.

(bikor turg'icha, bikor isla)

Bu bekor yurish odamni ishdan ozdirib erinchoq, dangasa, haqning nazaridan tushirib qo'yadi; ish odamni chiniqtiradi, ma'lum bir maqsadga olib boradi va tayyorga – ayyor bo'lib qolishdan saqlaydi, degan ma'noni bildiradi. Bu maqolning quyidagi muqobil ma'nosi ham bor.

خوش ياقماسقە ئىش بۇيۈرساڭ، ساڭا ئەقلى ئۆگىتىم.

(xush yomasqa ish buyursang, sanga aqil o'gitar)

Bu ish xush yoqmaydigan dangasa odamni ishga buyursa, har xil bahona – sabablar ko'rsatib bosh tortadi, degan ma'noni bildiradi. Shuningdek buning muqobil varianti ham mavjud;

"خوش ياقماسقا ئىش بۇيۈرساڭ، ئالتنىچى ئايدا قولى توڭۇپتۇ"

(xush yoqmasqa ish buyursang, oltinchi oyda qo'li to'ngiptu)

ئىشلەگەن چىشلىمەيدۇ

(ishligan chishlaydu)

Bu halol ter to'kishdan erinmagan odam mehnatining halovatini ko'rib, farog''atda yashaydi, degan ma'noni bildiradi. Bu maqolning uyg'ur tilida muqobil varianti quyidagi maqol misolida korishimiz mumkin.

ئىشلىسىمەڭ ئالىسەن قاپلاپ ئاش، ئىشلىمىسىمەڭ قالىسەن چايىناپ تاش.

(ishlisang olisan qoplap osh, ishlimisang qolisan chaynap tosh)

Bu ish, mehnat qilgan kishi qilgan mehnati evaziga erishadigan rizqini oladi, aksincha hechqanday harakati, mehnati bo'lmasa quruq qolishi tayinligini bildiradi.

هورۇننىڭ ئىتىمۇ ھارغاڭ كېلىدۇ.

(ho'running etimu horg'oq kelidu)

Bu ishni uncha xush ko'rmaydigan bekor talablarning hamrohlari ham erinchoq, bo'shang bo'ladi, degan ma'noni bildiradi; eskilarning,

"هورۇننىڭ ئىتىمۇ ھارغاڭ كېلىدۇ"

Degan gap rost bo'lsa kerak, hikoyamiz tugaguncha ikki yil o'tib ketti. Men qo'shko'lga borganimda, qopoq terakdagi hovlining allaqachon bu dunyo bilan vidolashganligidan xabar topdim", degan misollar bilan berilgan.

هورۇنغا ئىتىزنىڭ قىرى تاغ كۆرنىم.

(ho'rung'a etizning qiri tog' ko'rinar)

Bu ish xush ko'rmaydigan, yoqmaydigan, bekorchilikni istaydigan, erinchoq va irodasiz odamning qiyofasi korsatilgan.

هورۇن ئىشەكىنىڭ يىمى تولۇق.

(ho'run eshakning yemi to'luq)

Bu ishni suymaydigan bekor talab insonlarning har xil yo'llar bilan ozuqa topib yeishi va shunga o'xshagan ma'nolarni bildiradi. Misol qilib; boyattan beri men sizlarni usta tomchilarga o'xshaydi deb o'ylabman, dangasa eshakning yemi to'liq degandek, fikrimcha sizlarning ko'pchiliklaring "قىشلىقى قاپان باراي، يازلىقى ساراي سالاي"

Deb o'ynab yuradiganlarga o'xshamas ekansizlar? Dedi u.

هورۇنى ئىشقا بۇيۇرساڭ، ئاتاڭدىن ئارتۇق ئەقل كورستىم.

(ho'runni ishqa buyursang, otangdin ortiq aqil ko'rsitar)

Har qanday ish yoki mehnatda dangasa, yalqovlarga biron – bir yumushing yoki ishing tushadigan bo`lsa, u vaziyatga dangasalar, yalqovlar doim biron bahona bilan o`zini olib qochadi, senga nasihat, aql o`rgatishni boshlaydi.

گەپدان بولغۇچە، ئىشچان بول.

(gapdon bo'lg'ucha, ishchan bo'l)

Bu maqol nasixat ma'nosida kelib, doim mehnat, ish ustida turgan inson ishini ko`ngildagidek va o`z vaqtida yakunlashni istasa shu maqolga amal qilgani maqlul. Og`zing harakatta bo`lsayu, qo`ling harakati bo`lmasa, ishing yakunlay olmaysan. Chunki gap ko`p joyda albatta ish oz bo`ladi. Bu maqolga muqobil varianti qilib quyidagini olsak bo`ladi:

گەپ دېسە بەش ئىشەككە يۈڭ، ئىش دېسە خەپ شۈك.

(gap desa bash eshakka yuk, ish desa xap shuk)

ئىشچاندىن تەر چىقىپتۇر، ھۇرۇندىن "ئۇھ".

(Ishchandin tar chiqiptu, ho'rundin "uh")

Bu ishdan qochmaydigan ishchan odam sog'lom, baquvvat bo'ladi, ish xush yoqmaydigan , bekor talab odam kasalmand, horg'in kayfiyat bo'ladi degan ma'noni bildiradi.

ئىش قىلىشقا بىلى بوش، گەپ قىلىشقا ئاغزى قوش.

(ish qilishqa beli bo'sh, gap qilishqa og'zi qo'sh)

Ish bilan xushi yo'q , dangasa odam gapi ko'p , og'zi botir bo'lishligini bu maqol bilan yoritib berilgan .

ئىشلەپ يىگەن لەززەتلىك، تىلەپ يىگەن مىننەتلىك.

(ishlap yegan lazzatlik, tilap yegan minnatlik)

Bu ajir qilib, g'am chekib, mehnat qilib yegan ne'matning tam- huzuri boladi; ishlamay muhtojlikka qolib , kishilardan so'rab yegan narsa ko'ngilga six kabi sanchilib, minnat va ta'nalik bo'ladi, degan ma'noni bildiradi.

5. Mazmuni jafo va mashaqqat bilan bog'liq maqollar.

جاپا تارتىمىغۇچە ھالاۋەت يوق.

(japo tortmig'ucha halovat yo'q)

Buning “jafo chekmay halovat yo’q” deganvarianlari ham mavjud bo’lib, jafolik mehnat qilgan, ter to’kib ishlagan kishi baxt – saodatga, rohat – farog’atli turmushga erisha oladiganligini bildiradi.

جاپандىڭ تېگى راھەت.

(japoning tegi rohat)

Bu halol ter oqizish, jafo mashaqqatli menat orqali rohat – farog’atli bayoshat turmushga erishsa bo’ladiganligini bildiradi

6. Masmuni kuch- qudrat va quvvat bilan bog’liq maqollar.

كىشىگە ئىشەنگىچە، بىلەكتىڭ كۈچىگە ئىشمن.

(kishiga ishangicha, bilakning kuchiga ishan)

Bu birovning yordamidan umid kutgandan ko’ra , harkim o’zining mehnatiga tayanib yashash azal ekanligini bildiradi.

ئىش ئۆملۈكتە، كۈچ بىرلىكتە.

(ish o’mlukta, kuch birlikta)

Bu ko’ngilg abir niyat- bir maqsadni tugib uyushganda har qanday ishda muvaffaqiyatga erishsa boladi, degan ma’noni bildiradi. Shuningdek mana bunday variantlari ham bor;

“كۈچ بىرلىكتە، ئىش ئۆملۈكتە”.

Men sezdim , uning kuch- qudratini qiziqqon, xuddi quduqdan suv tortadigan qalin zanjirning xalqasidek bir-biriga birikib , bog’lanib kelgan

“كۈچ بىرلىكتە، ئىش ئۆملۈكتە” degan so’z asliy ishchi tog’alarning so’zi.

قىيىن ئىشنىڭ بىشىغا باتۇر كېلىم قىشىغا.

(qiyin ishning beshig’ a botur kelar qeshig’ a)

Bu hech nimadan qo’rqmaydigan qaysar odam har qanday jafo- mashaqqat, og’irchilikdan qochmay, fidokorlik ko’rsatadi, degan ma’noni bildiradi.

قىيىن ئىش يوق ئالىمده، كۆڭۈل قويغان ئادەمگە.

(qiyin ish yo’q olamda, ko’ngul qo’yg’ an odamga)

Bu har qanday mashaqqatlik, mushkul ish tirishchan, irodalik odamga qiyinligi bilinmaydi, degan ma'noni bildiradi. Bu maqolning bunday muqobil turlari ham bor;

"قىيىن ئىش يوق ئالىمەت ، غەيرەت بولسا ئادىمەت"

(qiyin ish yo'q olamda, g'ayrat bo'lsa odamda)

7. Mazmuni dehqonchilik, chorvachilik, bog'bonchilik va mo'l-ko'lchilik bilan bog'liq maqollar.

باغنى باقساتك باغ بولىمر، پاتمان - پاتمان ياغ بولىمر.

(bog'ni boqsang bog' bo'lar, potmon – potmon yog' bo'lar)

Bu harkim foyda ko'rayotgan narsasidan davomli foydalanish uchun unga ozmi ko'p mehnat, harajat qilib, badal to'lab ajir singdirgandagina davomli huzur halovatni korishi mumkin degan ma'noni bildiradi.

باقساتك باغ بولىدۇ، باقمساتك داغ بولىدۇ.

(boqsang bog' bo'ludu, boqmisang dog' bo'lidur)

Bu ehtiyotlab parvarish qilingan, mehnat singdirilgan bog' gullab yashnaydi, tugamas manfaat beradi; aks holda mehnatsiz o'zholiga qoyilgan, parvarish qilinmagan, asralmagan joy ziyon keltirib chiqaradi v akishini hasratta qoldiradi, degan ma'noni bildiradi.

پەر ھوسۇنىڭ ئانسى، ئەمگەك ھوسۇلىنىڭ ئانسى.

(yar ho'silning onisi, amgak ho'silning otisi)

Bu dehqonchilikda yer ozuqa ishlab chiqarishning manbasi ekanligini; mehnat bo'lsa hosil olishning birdan bir asosi ekanligini bildiradi.

تىرىغان خامان قىلار، تىرىمىغان ئارمان قىلار.

(terig'on xomon qilar, terimig'on armon qilar)

Bu ishlagan, mehnat qilgan kishi mehnatinining huzurini – halovatini ko'radi, tegishli daromadga erishadi; ishlamagan, mehnat qilmagan kishi yoqsizlikdan mangu pushaymon qilib hasratta o'tadi, degan ma'noni bildiradi.

دېھقانچилق چилق- چилق، بولмиса غির بېچىلىق.

(dehqonchiliq chiliq – chiliq, bo’lmisa g’eribchiliq)

Bu har qanday kasbda ko’ngil qo’yib , ixlos bilan ishlashning zarurligini, qanchalik ajir qilsa shunga yarasha foyda tegadiganligini, ter to’kishdan erinsa hech nimaga erisholmay, quruq qo’lda qolishini bildiradi. Jumladan shunga o’xshash yana maqollar bor. Misol; bu ahvoldan dehqonlar ham vasvasaga tushub qoldi, ular – hoy!

“دېھقانچилق چилق- چيلق، بېزىدە قۇرۇق پىلەك.”

Degan shu ekanda, deyishardi.

دېھقاننىڭ پۇلۇ يەردە.

(dehqonning puli yarda)

Bu har soha – har kasbdagilarning tafovut kirimi shu kasb uchun singdirgan mehnatiga bog’liq ekanligini, qilgan ajriga tinchlik halovat ko’radiganligini bildiradi.

سۇيۇڭ غول- ھوسۇلۇڭ مول.

(suyung g’o’l ho’siling mo’l)

Bu suv dehqonchilikning jon tomiri ekanligini, uningsiz tariqchilik qilish mumkin emasligini, suv ko’p bo’lgandagina mo’l hosil olsa bo’ladiganligini bildiradi. Bunga qo’shimcha yana bir maqol bilan keltirilgan

“سۇيۇڭ غول- ئىشىڭ مول.”

سۇيۇڭ كۆلەد، ئىشىم چولەد.

(suuyng ko’lda, ishim cho’lda)

Bu dehqonchilikda ehtiyojga yetarli suv bo’lganda quruq yerlarga ham don dun ekib, oshlik terib hosil olsa bo’ladiganligini bildiradi.

ئىشلىگەن چىلىق-چىلىق، ئىشلىمىگەن قورغاقچىلىق.

(ishligan chiliq – chiliq, ishlimigan qurg’oqchiliq)

Bu jafodan qochmay , ter to’kib mehnat qilgan kishining to’qqizi tol bo’lib , turmushi farovonchilikda o’tadi; dangasalik har kimni noshutlikda xo’r bolib yashashga majbur qiladi degan ma’noni bildiradi.

ئادем يерни ئالدىمسا، يەر ئادامنى ئالدىماس.

(odam yarni oldimisa, yar odamni oldimas)

Bu bilan yerni insonning tirikchilik qilish manbasi, boyligi bo'lib, u tufaylidan qanchalar manfaatga erishish singdirilgan ajirga bog'liq, yerga tirishib, qattiq bel bog'lab ishlagandagina yer ham kishilarni no umid qo'ymaydi, tegishlik manfa'atga erishtiradi degan manoni bildiradi.

1. Mazmuni mehnat bilan bog'liq maqollar.

Mehnat , mehnatning tagi – rohat.

Insoniyat bosib o'tgan uzundan – uzoq yo'l mehnat jarayonidan iboratdir . Inson o'zining jamiki boyliklarini mehnat faqat mehnat tufaylidan yaratadi. Shu boisdan kishilar mehnatni qadrlaydilar , ulug'laydilar , yosh bo'g'irlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydilar. Shu boisdan jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi o'zbek maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rnlardan birini egallaydi.

“Yetmish go'zallikning biri mehnat”; “Go'zallik husnda emas, mehnatda”; “Daryo suvini bahor toshirar , odam qadrini mehnat oshirar”; “Mehnat – rohatning poydevori”; “Rohatning onasi - mehnat”; “Obro'ning onasi - mehnat , otasi- sayi harakat”; “Odamni ish tanitadi”; “Yuk ko'targan yuzaga chiqar”; “Yuk ko'targanning yuzi yorug””; “Intilgan - elga yoqar”; “Mehnatdan do'st ortar , g'iybatdan - dushman”; “Ota urug'i birlashtirmas, mehnat yo'rig'i birlashtirar”; “Mehnat , mehnatning tagi ziynat”; “Halol mehnat huzur halovat”; “Halol mehnat mo'l daromad”; Halol mehnat – yaxshi odat , berur senga baxt saodat”; “Halol ishla, halol tishla”; “Suvsiz hayot bo'lmas , mehnatsiz rohat”; “Ot surinmay yo'1 topmas, yigit urinmay mol topmas”; “Mehnatsiz rohat yo'q”; “zahmat chekmay rohat topilmas”; “Cheksang zaxmat, yog'ar rohat”; “Mehnat qilmay rohat ko'rmas, urug' sepmay ekin o'rmas”; “mehnatsiz rohat bo'lmas , tashvishsiz - ne'mat”; “Azob ko'rmay, rohat yo'q”; “Hurmating - savlating , mehnating - davlating”; “xazina g'oyibdan emas , mehnatdan”; “Mehnat qilsang yasharsan ,

katta-katta osharsan”; “Oz yesang ko’p yashaysan , mehnat qilsang ko’p oshaysan”; “Mehnat qilib topganing - qandu asal- totganing”; “Mehnatdan kelsa boylik , turmush bo’lar chiroylit”; “Mehnatning ko’zini topgan , boylikning o’zini topar”; “Mehnat qancha qiyin bo’lsa , keti shuncha shirin bo’lar”; “Betashvish bosh qayda , mehnatsiz osh qayda ”; “Oson yerda osh qayda”; “Oson ishning oxiri bor”; “Xirmon yanchish sa’vaning ishi emas”; “Uchqundan qo’rqqan temirchi bo’lmas”; “seni ish yengmasin , sen ishni yeng”; “Mehnat qilgan – ne yaxshi , unumin yegan undan yaxshi”; “Ishlab topganning oshi- lazzatlik”; “Olamdaa mehnat nonidan shirin narsa yo’q”; “ter to’kib topgan mol – husnga hol”; “Mehnatning noni shirin”; “Tekin topgan holva shirin, Mehnat bilan topganga non shirin”; “Mehnatsiz qo’lda – muhabbat qayda?!”; (Bu bilan; “er kishining muhabbati bo’lsayu, uning oqibatida yegulik, ichkulik, kiyadigan kiyguligi, maishati, rohat- farog’ati bo’lamasa, har qanday vafodor, sabr-chidamli yor ham bora-bora undan sovib, aynib ketadi” demoqchi bo’ladilar. Shu mazmunga mos “Pulsiz oshiq, qanotsiz qush” degan maqol ham bor); “Yer qazimasang, oltin chiqmas, qarmoq solmasang- baliq”; “Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas” (otiz- marza); “Tesha urmasa, yog’och yo’nilmas”; “Do’kon to’qisang bo’z bo’lar, charx yigirsang to’n bo’lar”; “Butamasang – meva oz, Tarasang , yersan qishu yoz”; “Bo’rining qornini oyog’i to’yg’azadi”; “Elning ko’rki er bilan, arning ko’ki ter bilan”; ”Bugungi qora ter, ertangi oq dur”; “Hosil zo’ri – manglay teri ostida”; “Ter to’kkanga – qop-qop don, to’kmaganga – qayda don?!”; “Dehqonning xazinasi- yer, yerning kalidi ter”; “Ter to’kkanga yer to’kadi”; “Ter chiqmassa, etak to’lmaydi”; “Ter chiqqandan jon chiqmas”; “Ter chiqqandan dard chiqar”; “Ter to’ksang mard bo’lasan, to’kmasang mo’rt bo’lasan”; “Terga botgan –rohatga botar”; “Tek turmagan – to’q turar”; “Manglay teringga olingan mol- jingga hol”; “Mehnatsiz topilgan oshdan – mehnatda topilgan tosh yaxshi”; “Mehnatli osh osh bo’lur, mehnatsiz osh tosh bo’lur”; “Mehnatsiz umr - chirigan ko’mir”; “Mehnatsiz turmush - umrga hiyonat”; “Mehnatdan do’st ortar, g’iybattan dushman”; “Mehntda topilgan do’st ayrilmas”; “Do’st do’stni kulfatda

sinar, odam odamni mehnatda”; “Ota urug’i birlashtirmas, mhnat yo’rig’i birlashtirar”; “Oltin o’tda chiniqar, odam- mehnatda”; “Uyqu tiniqtiradi, yumush chiniqtiradi”; “odamzodni ish ovutadi”; “Quruq so’z bilan osh pishmas”; “Mehnat qilmasang, iste’doding bekor”; “Mehnatga sabr qilgan, - rohatning taxtiga minar”; “Mardni mehnat yengolmas”; “Ko’p ishlagan - ko’p yashar”; “Yoshlikda mehnatga o’rgangan- qariganda rohatga uloqadi”; “Yoshlikdagi mehnat qarilikda davlat keltirar”; “Yoshlikda ishla qator, qariganda asqotar”; “Mehnat bilan qarisang, rohat bilan yasharsan”. Keltirilgan barcha misollar mehnating mazmuni va qirralarini ochib bergenlar.

Birovning bergani-ko’rgulik, mehnatning bergani- to’ygulik.

O’zi mehnat qilmay, o’z tirikchiligi uchun zarur bo’lgan moddiy ne’matlarni o’zi ishlab topmay birovdan tama qilish tilash, birovga yalinib kun ko’rish, birovning hisobiga yashash- o’ta ketgan yomon xislat va tekinxo’rlik. Bir turkum maqollarning g’oyaviy mazmuni ana shunga qaratilgan. Bulardan ;
“Birov bir kun to’yg’azar, ikki kun to’yg’azar, tokay to’g’azar”
“Birni birov beradi, ko’pni - mehnat”.

Kishining suygan mehnati o’ziga rohat tuyiladi.

Bu maqolning bunday varianlari ham bo’ib: “Ishchanga ish ishq bag’ishlar”; “Ish qilganning o’z ishiga ishq ortar”; “Suygan ish chala qolmas”; “Ishga ishq qo’yganni ish xorlamas”; “Ishga ishq yo’jni ish hohlamas”; “Kishini kish emas, ish qizdiradi”; (kish – qora po’stin)

2. Mazmuni ish bilan bog’liq maqollar.

Ishlagan – tishlaydi, ishlamagan – kishnaydi.

“Ishlagan odam o’z tirikchilagini taminlaydi. Ishlamagan odam esa och qolgan ot kabi kishnaydi, ya’ni dod- faryod qiladi, qiynaladi”, deyilmoqchi. Umuman, ota – bobolardan ko’plab maqollarda mehnat- insonning moddiy va ma’naviy boyligi, tirikchiligining asosi, poydevori ekanligi ta’kidlanib, ishlaganlar

to'q va farovon yashashlari, ishlamaganlar, dangasalik qilib, mehnatdan ochyalong'ochlik va muxtojlikka duchor bo'lishlari turli misollarda ko'rsatiladi hamda har qancha qiyin bo'lsa hamki, mehnat qilish, mehnatga bo'yin qo'yish zarurligi qayta-qayta uqtiriladi. Variantlardan: "Ishlagan – tishlaydi, ishlamagan – boshini qashlaydi", "Ishlagan – osh tishlar, ishlamagan- tosh tishlar"; "Ishlaganning og'zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar"; "Ishlik- ish kavlar, ishsiz- tish kavlar"; "tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning irni dog'liq" (irn - lab)"; "Tirishqoq mehnatsevar odam yaxshi- yaxshi yeydi, moy chaynaydi, labi yog'lik bo'lib yuradi. Erinchoq dangasa esa, ishlamay – kuchlamay, mablag' topmay, birovdan tilanb, tamagir bo'lib, kezi kelsa odamlarning nafratiga uchrab, yomon otliqqa chiqadi. Doimo bir nima so'rashga o'rganib qolgan og'izdan biror so'z chiqadigan bo'lsa, "Obbo, yana tilanyapti-ya!" deb o'ylab, uning so'zini eshitgilari ham kelmay, ensalari qotadi", deyilmoqchi. "Irni dog'lik" deganining ma'nosi shu. "Ishlagan so'qim yer, ishlamagan to'qim yer" (so'qim- go'sht uchun semirtirib boqilgan qoramol. Maqolda: "ishlamagan odam muxtijlik balosiag yo'liqib, nima duch kelsa , shuni yeishga majbur bo'ladi" , degan fikr "to'qim – otning, eshakning to'qimini yer" deb mubolag'a qilingan); "Ish ohsga tortar, yalqovlik boshga tortar"; "ishchan oshini yer, dangasa boshini yer"; "bor, bor ishga bor, ishlamagan nonga zor"; "Ish qilganga – oqp-qop, qilmaganga – bo'sh qop"; "Ish tek turolmas, ishlamagn kun ko'rolmas"; "Ishdan qochding, oshdan qochding"; "qo'li o'ynaganning og'zi o'yanr, qo'li o'ynamaganning – ko'zi o'ynar"; "Qo'li o'ynagan , ya'ni, qo'lini harakatga keltiirib, mehnat qilgan odam mablag' topib, yemish yeydi. Mehnat qilmagan odam esa hech narsaga ega bo'la olmay, och qolib boshqalar yeyayotgan narsaga havasi kelib, ko'zini o'ynatadi", deyilmoqchi); "Ishlamasang ish kuni , ne osharsan qish kuni?"; "Ishlagin ishni , qishda kiyarsan kishni, ishlamasang ishni titrab chiqarsan qishni"; (kish- suvsar mo'ynasidan tikilgan po'stin, yengil chiroyli, issiq va qimmat baho bo'ladi. "yaxshi ishlab yaxhsidaromad qilsang, qishga ana shunday issiq kiyim – kechaklar hozirlaysan, butun qsh bo'yi titrab qaqshab chiqmaysan", deyilmoqchi); "Ishni

yaxshi ishlasang, yaxshi- yaxshi yeyarsan, chala chulpa ishlasang, qishda yupun kiyarsan”, “yozda quldek ishla, qishda bekdek ye”, “yaxshi ishlasang to’ning bitar”; “Yaxshi ishlasang, oshingni yersan, yomon ishlasang, boshingni yersan”; “Eksang ekin- yersan tekin”; ”ekilganda ekmagan – o’rilganda yig’lar”; “Ishlab xorigan, tishlab xorimas”, shu kabi maqollarni kuzatishimiz mumkin.

“Yoqar ishning boshiga, yaxshi kelur qoshiga ”

Ayrim odamlarga og’ir, mushkul, bajarishning iloji yo’qday bolib tuyilgan ishni mard, g’ayratchan, mehnat mashaqqatidan qo’rqmaydigan odam kelib, yuzaga chiqarib beradi.

Ishning omadi - o’z vaqtি.

Vaqt inson uchun behisob va eng qadrlı boylik. Shuning uchun ham “oltin topiladi, vaqt topilmaydi”; deydilar. Bir muncha maqollar vaqtini qadriga yetish, ishslash vaqtı kelganda g’aflat bosib yotmaslik, har bir ishni o’z vaqtida bajarish, ishni also keyinga surmaslikni doimo uqtiriladi, buning aksi yomon oqibatlarga olib borishi turli misollar bilan ko’rsatiladi. “Har bir ishning vaqtı bor, vaqtini bilgannning baxti bor”, “Har yumushning fasli bor, har bir ishning asli bor”; “Har narsa ham o’z vaqtida qiziq”; “Har narsa o’z vaqtida yaxshi”; “vaqtida pishmagan oshni boshingga ur”, “Vaqtida aytilmagan so’z tun oshsa, mog’or bosadi”, “O’limdan boshqasini erta bo’lgani yaxshi”; “Erta bo’lмаган кеч бо’лмас, кеч бо’лмаган hech бо’лмас”; “Paysalga tushgan ishning bitar payti yo’q”; “Keyinga qolgan ish – keltirar tashvish”; “Oshing qolsa qolsin, ishing qolmasin”; “Osh qolsa davlat, ish qoldsa mehnat”; (“ Yeydiga oshing bir oz ortib qolsa – bu sening naqd boyliging, tayyor ovqating bo’lib turaveradi. Ammo qiladiga ishingni o’z vaqtida tugatmay, chala qoldirsang, keyin bu ishni bitirish ortiqcha tashvish keltiradi, ortiqcha vaqt sarflashni, ortiqcha haraakt qilishni taqozo etadi. Shuning uchun har bir ishni o’z vaqtida qilib qo’y” deyilmoqchi)

Ishchanning o’nta qo’li bo’lsa, o’noviga ham ish topadi.

Kishining qo’li besh barmoqdan iborat bo’lib, bui ko’inchha besh qo’l deb ham ataydilar. Mazkur maqol bilan: “Ishchan, mehnatsevar, srg’ayrat odam hali

ikkita qo'li ekan-ku, agar o'nta qo'li bo'lganda , onoviga ham ish topilardi” degan ma’noni izohlab berilmoxchi.

Qoshing qora , ko'zing qora, o'z ishingga o'zing qara.

Bu maqolning bunday variantlari ham bor; “Bug'doyingni o'zing o'r, tegirmoningni o'zing tort”; “Bzoringni o'zing qil, tegrmoningni o'zing tort”; “Qush ham uyasini o'zi quradi”. Bu maqollar bilan: “O'z zimmangga yuklangan, o'zing qilishing zarur bo'lgan ishni, shuningdek, o'z turmushing, tirikchililing uchun kerak bo'lgan ishlarni o'zing bajar, erinma , birovga orqa qilma!” degan ma'noda nasixat qiladilar.

Ishga qo'nim- xirmonga unim.

“Har bir ishni qunt bilan, sabr- chidam, sabot- matonat, g'ayrat shijoat bilan, erinmay yalqovlikka berilmay qilsang mehnatingni rohatini, yaxshi unumli samarasini ko'rasan”, deyilmoqchi. Bu maqolning boshqa variantlarini ko'radigan bo'lsak: “Ish bilan qishning mushkuli bitar”; “Ish faqat yaxshi niyat bilangina bitmaydi”; “Tilak boshqa, ish boshqa”; “Ish hayol bilan emas, harakat bilan bitadi”; “Ish boshlanganda – ermak, bitmay qolsa- emgak (emgak- mehnat, mashaqqat)”; “Ishni sovutsang – ishdan sovisan”; “Ishlamagan ishga shayton qular”. Kabi misollarni kuzatishimiz mumkin

Belni peshlagan bilar, yerni ishlagan bilar.

“El qadrini bilmaydi, el ichida yomonlar, yer qadrini bilmaydi, yer ekmagan odamlar”. Mazkur maqollarda, “mehnatning va mehnat orqasidan keladiga ne'matlarning qadrini mehnat zaxmatini chekkanlargina yaxshi biladilar. O'zlar mehnat qilmagan, o'zgalar mehnati hisobiga yashaydigan odamlar buning qadrini qaydan bilsinlar?! Degan ma'no yashiringan.

Bekor turguncha, bekor ishla.

Xalqimiz asrlar davomida yaratgan son-sanoqsiz maqollar orasida mehnatsevarlik mavzuiga oid maqollar salmoqli o'rin tutadi. Bularda xalq turli misollar, o'xshatishlar vositasi bilan mehnatni sevishga chorlaydi. Buning boisi

shundaki, mehnat-inson hayotining ma’naviy boyiligi, moddiy manbai va salomatlik garovidir. Bunga o’xhash ma’noli maqollardan :

“Tek turguncha tekin ishla”, “Tek turmagan to’q turar”,

“Yo’l ustida tik turma, ish ustida tek turma” (Bunda; “haminki safarga chog’langan ekansan, yo’l ustida tik turma, yur, yuraversang yo’ling unadi” deyilmoqda)

“Bo’y ishlamas, qo’l ishlar”, “Ishlagandan yurgan og’ir, yurgandan turgan og’ir”,

“Bekorlikdan beqarorlik tug’lar”, “Bekorchilikdan bemazagarchilik chiqadi”,

“Bekorchining beti yo’q, qozon osar eti yo’q”, “Bekorchining hunari – g’iybat”,

“Bekorchidan hamma bezor”, “Bekordan xudo bezor”, “Bekorchidan bezib qoch,

chaqimchidan ko’chib qoch”, kabi mazmundagi maqollarni ko’rishimiz mumkin.

3. Mazmuni hunar bilan bog’liq maqollar.

Hunar- bir , pardoz qirq.

Kosib va hunarmandlar o`lchovda bir xil tikar, to`qir va yasar edilar – u, ammo maxsulotlariga pardoz berishda o`zlari xos uslubda ish ko`rardilar, mollarini xaridorgir qilish maqsadida pardozga zo`r berardilar. Ustalar shogirdlariga: “Hunar – bir xil hunar – u, ammo pardozi qirq xil, hammadan ham pardozni o’ragan”, deb nasixat qilardilar.

“Hunar, hunardan unar”

Bir turkum maqollarda hunar – turmushning moddiy va ma`naviy asoslaridan biri ekanligini, hunarli kishi o`z rizqini topa olishi, mushkul ishlarning ham uddasidan chiqa olishi, hunarsiz kishining esa turmushda har tomonlama qiynalishi qayd etiladi, shuning uchun hunar egallash, egallaganda ham puxta egallash zarurligi uqtiriladi. “qunt bilan o`rrgan hunar, hunardan rizqing unar”, “hunar to`yg`azar, otmindirib, to`n kiyg`azar”, “hunar – minsang ot, uchsang qanot”, “qo’lida hunari borni ng – belida kamari bor”, “hunar – oshxo`rga osh beradi, hohxo`rga non”, “yuz hunarni chala bilgandan – bir hunarni to`la bilgan yaxshi”, “bilmagandan bilgan yaxshi, to`g`ri ishni qilgan yaxshi”, “gapdan ko`ra ish yaxshi, har ishni bilish yaxshi”, “yaxshi bilsang ishingni, yaxshilar silar boshingni”. Bir donishmand

farzandlariga shunday nasixat qilardi: azia o`g`lonlarim, hunar o`rganinglar, zeroiki, molu dunyoga e'timod yo`q va oltin – kumush safarda xatarlidir. Qaroqchi o`g`irlab ketadi yoki egasi yeb – ishib tamomlaydi. Ammo hunar qaynar buloq, tunganmas davlatdir, agar hunarmand molidam maxrum bo`lsa, qayg`usi yo`qdir, chunki hunarning o`zi davlatdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uyning to`ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi (Sa`diy, Guliston).

4. Mazmuni ishyoqmaslik ,dangasalik, erinchoqlik va bekorchilik kabi hislatlar bilan bog'liq maqollar.

Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas.

Xalqimiz o'zining bir qancha maqollarida ishyoqmaslik va dangasalikni, yalqovlik va erinchoqlikni eng yomon illat sifatida qattiq qoralaydi, ishlaymay – kuchlamay, bekor laqillab yuruvchi shaxslar ustidan kuladi, ishyoqmaslikning oqibati yomon bo'lishini ko'rsatadi. Jumladan maqolning muqobil variantlarigacha berishgan: “yalqovning yovi yumush”, “yalqovga bulut soyasi ham - yuk”, “dangasaga ostona tepe bo'lib tuyuladi”, “erinchoqning og'zini it yalaydi”, (“erinchoq ovqatlangach labi – lunjida qolgan yuqu – yurumi it kelib yalasa, “Tur ket!” deyishga ham erinadi”, deyilmoqchi); “arg'umog'im jirtak otdi, loyni ko'rib tappa yotdi”, “dangasaning vaji ko'p, ohangsizning avji ko'p”, “o'tloqda bedana ko'p, dangasada bahona”, “shotining pog'onasi ko'p, yalqovning bahonasi ko'p”, “ishyoqmasga ich og'rig'i bahona”, “o'roqchining yomoni o'roq tanlar”, (“harna vaqt o'tsa – yu, kamroq ishlasam, degan maqasadda o'roq tanlaydi,deyilmoqchi”). “ishyoqmas mardikor ketmon tanlar”, “yomon kosib bigiz tanlar”, “tuyaqushga “uch” desalar, men tuyamaan debdi, bo'lmasa yuk ko'tar , desalar, “men qushman” debdi”, “yalqov xotinga bolasi borligi bahona”,(odatda xotinlar biror yerga - to'yga, ziyofatga, ma'rakaga borsalar, ko'pincha (ayniqsa yosh bolalilar) o'z bolalarini ham birga olib boradilar. Agar borgan yerlari qarindosh – urug'lari yoki tanish – bilishlari bo'lsa, xizmat qilishlari, uy egasiga ko'mak berishlari kerak bo'ladi. Bu maqolda; “shunday paytda yalqov xotin bolasiga qaragan bo'lib, o'zini

ishdan olib qochadi” deyilmoqchi. “ishyoqmasga gap yoqmas”, “erinchoq eshikka chiqsa, ot yollaydi” (“yaqingina yerga ham piyoda borgisi kelmay, pul berib ot yollaydi”, deyilmoqchi). “Erinchoqning do’ppisi yerga tushsa, pul berib oldiradi”, “yalqovning qo’li qo’ynidan chiqmas”, “erinchoqning qo’li yetmas, qo’li yetsa ham ishi bitmas”, “erinchoqning qo’li qisqa, erinmaganning yo’li”, “yalqov yotib buyurar”, “yalqov o’tirgan yerida o’tin yoradi”, “qo’li bilan qovg’a yulmagan – og’zi bilan o’roq o’radi”, “yalqov yotolmaydi, yotsa turolmaydi”, “erinchak irg’anib turguncha, sigir sakkiz to’yib, ho’kz toqqiz to’yadi”, “erinchoq ekinchidan, erinmagan mashoqchi o’zibdi” (mashoqchi – g’alla o’rib yig’ib olingan maydonda yerga to’kilib qolgan don – dunni bittalab terib oluvchi); “qamchilatgan yuguruk emas” (o’zi hohlab, o’zi bilib, darrov u – bu ishga chaqqonlik bilan kirishitib ketaqolmay, hadeb gapirtiraveradigan, “uni qilgin – buni qilgin, deb qistashga majbur qiladigan ishlovchi emas”, deyilmoqchi); “qashangni qamchilamasa yurmas”, (qamchilamasa yurmaydigan otqi qashang deydilar) “dangasaning gapidan bol tomadi”, “gap desang qop – qop, ish desang olatog’dan top”, “dangasaga ish buyursang, otangdanyaxsgi nasixat qiladi”, “o’tmaydigan qish bormi, bitmaydigan ish bormi?” (bu maqol dangasa tilidan aytilgan bo’lib, dangasaning o’ziga qarata kinoya tarzida qo’llaniladi) “yoz bor, qish bor, dangasada na ish bor!?", “ishi yo’q it sug’orar”, (odatda otqi, eshakni, sigirni va b. Sug’oradilar – u, ammo hech vatda itni sug’ormaydilar. Mazkur maqol bilan “foydale ish qilishdan o’zini olib qochadigan, erinadigan odam zerikib, nima qilarini bilmay, qayoqdagi bo’limg’ur, keraksiz, foydasiz narsalar bilan mashg’ul bo’ladi”, demoqchi bo’lganlar). “ishi yo’q eshak hurkitar”, “erinchoq – erinchoqqa tasining soqoli o’yinchoq”, “ishsiz kelib, ishlikni ishdan qo’yar”, “ishchan yerni yashnatar, yalqov yerni qaqlshatar”, “ishchanni ishga chaqir, ishyoqmasni oshga chaqir”, (ishchan odamni ishga chaqirsang, u ishingni qoyil qilib bajarib beradi. Bundan senham xursand bo’lasan, uning o’zi ham. Dangasa esa ishni xushlamaydi, biror ish buyursang, erinadi, ensasi qotadi, bir to’qqiz bahona qiladi, qayta o’zingning diling g’ash bo’lgani qoladi. Shuning uchun dangasani tayyor oshga

chaqirsang chaqir – u, ammo ishga chaqira ko’rma”, deyilmoqchi). “ish deganda - nofarmon, osh deganda jon-qurban”, (nofarmon – boyinsunmovchi, itoat qilmovchi) “ot bo’lsang – u, kishnamasang, odam bo’lsang – u, ishlamasang” (buni o’ta ketgan yalqov, ishyoqmasning tilidan aytilgan) “kunda – kunda to’y bo’lsa, haftada hayit bo’lsa, o’rtada bir kun bo’lsa, u ham juma bo’lsa” (ilgari juma kuni dam olish kuni hisoblangan, bu keyingi ikki maqol ham yalqov, dangasalar tilidan aytilgan bo’lib, ularga nisbatan kinoya, istexzo tarzida qo’llaniladi) “hayosizga har kun hayit”, “orsizga olti kun hayit”, “ishchanga yilda bayram, yalqovga kunda bayram”, “ishchan baxtin ishidan izlar, yalqov baxtin kishidan izlar”, “otning yomoni-surinchak, odamning yomoni erinchak”, (surinchak - qoqiluvchi), “yalqovlikni bozor olmas, bozor olsaham mozor olmas“, “dunyoda kim o’ladi – bir ko’ngilchak, bir erinchak” (ko’ngilchak odam har kim nima desa shuni qilaverib, holdan toyib o’ladi. “erinchoq odamesa mehna qilmay, mablag’ to’plamay, kishilarining qo’liga qaram bo’lib, muhtojlikda o’lib ket”

Bu maqol o’zi mehnat qilmay, o’zgalar mehnati evaziga kelgan narsalardan foydalanuvchi, ularning qadriga yetmay, pala-partish sariflab yuboruvchi tekinxo’r, anoyi odamlarga qarata aytiladi. O’tmishda otasidan qolgan merosni huda-behudaga g’arra-sharra sarflab, aysh ishrat qiluvchilarga nisbatan ham qo’llaganlar.

Bir odam ariq qaziydi, ming odam suv ichadi.

“Bir odam ko’prik soladi, ming odam o’tadi”, “Bir kishi qazigan quduqdan ming kishi suv ichadi”.

Manosi: Ko’pchilikning manfaati yo’lida qigan xizmating zoe ketmaydi. Mehnating samarasidan bahramand bo’lgan kishilar sening nomingni yaxshiik bilan yodga oladilar, ko’pchilikning hurmat-ehtiromiga sazovor bo’lasan. Shunday ekan, el yurt manfaati yo’lida mehnatu g’ayratingni ayama.

Bir odam omoch bilan, yettovlon chomich bilan.

Bu maqolning bunday varianlari ham bor; “O’roq yo’q, mashoqda yo’q , xirmonda hozir” (Mashoq – bug’doy o’rib – yig’ib olingandan keyin yerga to’olib qolgan

boshoqlarni terib olish); “Birov ekar, birov bichar” (bichmoq – o’rmoq); “Chorakor choraklab olar, boy akam botmonlab”, “Arzimaydi g’allasi, kuydiradi shogirddonasi” (shogirdona – shogirdpeshaga, ya’ni eng quyi darajadagi soliq undiruvchi shaxsga natura- maxsulot bilan to’lanadigan haq). Bu singari maqollarda o’tmishdagi tengsizlik , haq- huquqsizlik o’z izini qoldirgan

Birovning qo’li bilan tikan yulish oson.

Bir odam biror ishning qiyinligini ko’ra -bila turib yoxud oson fahmlab, boshqa bir odamga: “shu ishni qilgin ” desa, u odam: “qilolmayman, bu ish mening qo’limdan kelmaydi” yoxud “bu ish juda ham mushkul-ku, axir!” deyishiga qaramay, majbur etsa, qiyin qistovga olaversa, shunday paytda o’sha ish buyurgan odamga nisbatan achchiq kinoya tarzida mazkur maqolni qo’llaydilar.

5. Mazmuni kuch- qudrat va quvvat bilan bog’liq maqollar.

G’ayratlining yuragi qaynar, g’ayratsizning yuragi o’ynar.

Xalq o’zining bu kabi maqollarida mehnatsevarlik, g’ayratchanlikni ulug’larkan, ayni patda buning akdi bo’lgan ishyoqmaslik, g’ayratsizlik, sustkashlikni eng yomon illat sifatida qoralaydi, ishlaymay- kuchlamay, bekor laqqilab yuruvchi shaxslardan xazar qilib hamda ishyoqmas- dangasalikning oqibati yomon bo’lishini uqtiradi: “Yer boyligi yuzida, er g’ayrari ko’zida”; “G’ayratldan imon qochib qutilmas”; (Imon – bir narsaga bo’lgan qat’iy ishonch, intilish, e’tiqod); “G’ayratsizning g’ayrari ish bitganda qo’ziydi”; “Yaalqovning maqtanishi – ish boshiga borguncha”; “G’ayratsiz bilak o’rinsiz tilak”; “G’ayrati bor kishining, barakati bor ishining, g’ayrati yo’q kishining barakati yo’q ishining”; “G’ayratliga - buyuk o’lja, g’ayratsizga- kuyuk kulcha”;

Ayiq o’z kuchini o’zi bilmaydi.

Maqol majoziy ma’noda o’z imkonini o’zi bilmaydigan va undan foydalana olmaydigan lapashang, noshud, dangasa, yalqov odamlarga nisbatan qo’llaniladi.

Aytmoq oson , qilmoq qiyin .

Bu maqolni ko'pincha "maqtanma, aytishga aytyapsan-u, ammo qila olmaysan", degan ma'noda qo'llaniladi. Bundan tashqari, ishni bajaruvchi tomonidan mushkul ish topshirgan kishiga nisbatan aytildi. Bunga misol qilib; "Gap bilan o'roq o'rish oson"; "So'zda botir bo'lmoq oson"; "o'rtoqlarimiz qamishkapada mакtab qurmoqchilar..... Gap bilan o'roq o'rish oson. Yangi mакtab qurishga arava arava yog'och, taxta, tunika kerak. Xo'sh , bularni qayoqdan topib bo'ladi?"(P. Tursun , o'qituvchi)

Birikkan kuch-kuch, birikmagan kuch-puch.

Inson yakka o'zi jamiyatgan ajralgan, holda yashay olmaydi. Xalqimiz o'zining bir qancha maqollarida kishiga jamiyat bilan birga bo'lish zarurligini uqtiradi, ko'pchilikning kuch-qudrati qanchalik buyukligini, kollektivdan ajralish, yakka yolg'iz yashashi esa yomon oqibatlarga olib borajagiini ajoyib tamsillar orqali ko'rsatadi.

Bitmas ishning boshiga, botir kelar qoshiga.

Bu maqolni yana boshqa variantlari ham bor: "Yoqar ishning boshiga, yaxshi kelur qoshiga"; "Buzilgan ishni botir tuzar". Ma'nosi ayrim odamlarga og'ir, mushkul, bajarishning iloji yo'qday bo'lib tuyilgan ishni mard, botir, g'ayratchan, mehnat mashaqqatidan qo'rqligida odam kelib, yuzaga chiqarib beradi.

Birov uchun birov tush ko'rib bermaydi.

Majoziy ma'nosi "Har kim o'z tirikchilagini o'zi o'tkazish harakatida bo'lishi kerak. O'zi uchun o'zi jon kuydirmay, birovning madadiga umid bog'lash yaxshi emas, buning foydasi ham, samarasi ham yo'q".

"Birov so'z berar, bo'z bermas".

Bu bilan birovga bosh egmay, ya'ni yordam berishini so'rab, yalinib yolvormasang, o'z tirikchilgingni o'z mehnating orqasida mustaqil ravishda o'tkazishga harakat qilsang, el- yurt o'rtasida xijolat tortmaysan, obro'ying tushmaydi, yuzing yorug', tiling uzun bo'ladi, - degan ma'noda nasihat qiladilar. "Birovning ishi- ko'ngilning xushi." "Birovning ishiga birovning qo'li saratonda

sovqotibdi”, “Birovning g’ami kech kirsa, erta chiqar”, “**Birovga qolgan kung’ong’otmagan.**

Ma’nosi: Birovga orqa qilmasdan, o’z ishigni o’zing qil. Birov sening g’amingni yemaydi, o’zining tashvishlari ham o’zi uchun yetarli. Sening ishingni vaqt topsa, hafsala qilsa, hushiga kelsagina qilib beradi, bo’lmasa yo’q. Buning uchun undan xafa bo’lm, gina qilma. O’z tirikchilgingni o’zing o’tkazish harakatida bo’l.

6. Mazmuni dehqonchilik, chorvachilik, bog’bonchilik va mo’l-ko’lchilik bilan bog’liq maqollar.

Dehqon bo’lsang, yer qoshida, sipoh bo’lsang el qoshida bo’l.

Buning boshqa variantlari ham mavjud: “Dehqon bo’lsang, roshida bo’l, cho’pon bo’lsang - qoshida”; (rosh- ekin maydonida olingan pol). “Ekinchi bo’lsang, qirda bo’l, baliqchi bo’lsang, suvda bo’l”. Bu maqollarda dehqon, cho’pon, sipoh, baliqchi umuman har bir kasb egasi o’z ishining tepasida bo’lishi, ko’z quloq bo’lib turishi, tirikchilik o’tqazayotgan ishning parvonasi, jonkuyari bo’lishi zarur, degan fikr ilgari surilgan.

Dehqon yog’sa tinar, cho’pon o’lsa tinar.

Boshqacha variantida esa bunday: “Dehqon qorda tinar, choon go’rda”; “qo’shchi yomg’irda tinar, qo’ychi o’lganda tinar”; “Dehqon yomg’irda tinar, baliqchi dovulda tinar”. Mazkur maqollarda choponning mehnati tinimsiz ekanligi ko’rsatib o’tilgan. Dehqon bahorda ekkan – tiqqanini kuzda yig’ib olgach, tinadi, yana bahorgacha nafas rostlab oladi. Ammo cho’ponning ishi bunday emas. U bahordan tug’ilgan qo’zi – ulog’ini yoz bo’yi avaylab boqadi. Qish kirkach, battar qiyin holga duch keladi. Bahor kelgach, qo’ylari yana qo’zilaydi... xullas, cho’pon yil aylanasiga tinim bilmaydi.

Shaf - shaf degan bilan shaftoli og’izga tushmas.

Bu bilan: “Rohatga erishmoq uchun faqat istakning, orzu havasning o’zigina kifoya qilmaydi, mehnat sa’yi harakat qilish kerak”, deyilmoqchi.

Ekin ekkan - tekin o’rar.

“Dehqochilik qilgan, yerdan mehnatini ayamagan odam rohatini ham ko’radi”. Degan ma’nodagi maqolning quyidagi variantlari bor: “Eksang ekin, yersan tekin”; “Eksang o’rasan, huzurini ko’rasan”; “Ekkan o’rar, tokkan terar”; (ekkan- don ekkan, tikkan- daraxt o’tqazgan); “Sepgan xirmon qilur, sepmagan armon qilur”; “Ekmaguncha unmas”; “Bir kun burun sochsang, hafta burun o’rasan”; “Erta ekkan butun olur, kechga qolgan o’tin olur”; “erta ekkan xirmon qilur, kech ekkan armon qilur”; “kechkki ekinning xatari ko’p”; (Kech qolib ekilgan ekin ayni o’sish , rivojlanish, hosil tugish paytiga kelganda havo haroarti)

Hut kirdi - dehqon paytavasiga qurt kirdi.

(Hut – quyosh yili hisobida o’n ikki oyning arabcha nomi, 22 – fevral bilan 21 – mart oralig’idagi davrga, ya’ni qishning oxiri va ko’klamning boshlanish davriga tog’ri keladi). Mazkur maqol bilan: Hut kirgach, dehqonlar qizg’in harakat qilib, ekin ekishga hozirlik ko’ra boshlaydilar, deyilmoqchi. Mana bunday variantlarini ham korishimiz mumkin: “Hut kirdi- yer ostiga dud kirdi”.

Hosiling kam bo’lsa, havodan ko’rma.

Har qanday ekinning ham hosili ob havoning qulay yoki noqulay kelishidan ko’ra ko’proq dehqonning qay darajada mehnat qilishiga, ekinni parvarish qilishiga, uning mahoratiga bog’liq. Mazkur maqol bilan ana shuni ta’kidlanib: “O’yin bilmaganga uy topligi!- bahona”; “O’zolmagan otga uzangi- bahona”, degandek, hosiling kam bo’lib qolsa, bunga ob havo emas, eng avvalo o’zing sababchisan. Agar o’zing qattiq turib ishlasang, ekinni “erkalatib” o’stirsang, maxorat ko’rsatsang, har qanday sharoitda ham yuqori hosil oishing mumkin. Zero, boshqa bir maqolda aytiganidek: “Ter to’kkanga- yer to’kadi”, degan ma’noda nasixat qiladilar.

II BOB. UYG'UR VA O'ZBEK TILIDAGI MEHNAT BILAN BOG'LIQ MAQOLLARNING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

2.1. Uyg'ur va o'zbek tilida maqollarning mazmuniy maydoninig mos va farqli jihatlari

Tilshunoslikda mazmuniy maydon nazariyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda asosan maydon birliklari sifatida keltirilgan unsurlar o'zaro semantik jihatidan yaxlit voqelikni kasb etadi. Maydon unsurlari sirasiga undan joy olgan semantik birliklar – leksemalar, sintaktik qurilmalar kiritiladi. Ularning kam – ko`pligi ya'ni doirasi jihatdan farqlashimiz mumkin. Masalan, ma'lum ma'no kasb etuvchi mazmuniy maydon boshqasiga nisbatan keng yoki tor deb baholanadi.

ئىشلىگەن چىشلەيدۇ
(ishligan chishlaydu)

Bu halol ter to'kishdan erinmagan odam mehnatining halovatini ko'rib, farog''atda yashaydi, degan ma'noni bildiradi. Bu maqolning uyg'ur tilida muqobil varianti quyidagi maqol misolida korishimiz mumkin.

ئىشلىمىسىڭ ئالسىمن قاپلاب ئاش، ئىشلىمىسىڭ ئالسىمن چايىناب تاش.

(ishlisang olisan qoplap osh, ishlimisang qolisan chaynap tosh)

Bu ish, mehnat qilgan kishi qilgan mehnati evaziga erishadigan rizqini oladi, aksincha hechqanday harakati, mehnati bo'lmasa quruq qolishi tayinligini bildiradi.

Ishlagan – tishlaydi, ishlamagan – kishnaydi.

“Ishlagan odam o’z tirikchiligini taminlaydi. Ishlamagan odam esa och qolgan ot kabi kishnaydi, ya’ni dod- faryod qiladi, qiynaladi”, deyilmoqchi. Umuman, ota – bobolardan ko’plab maqollarda mehnat- insonning moddiy va ma’naviy boyligi, tirikchiligining asosi, poydevori ekanligi ta’kidlanib, ishlaganlar to’q va farovon yashashlari, ishlamaganlar, dangasalik qilib, mehnatdan och-yalong’ochlik va muxtojlikka duchor bo’lishlari turli misollarda ko’rsatiladi hamda har qancha qiyin bo’lsa hamki, mehnat qilish, mehnatga bo’yin qo’yish zarurligi qayta-qayta uqtiriladi. Variantlardan: “Ishlagan – tishlaydi, ishlamagan – boshini qashlaydi”, “Ishlagan – osh tishlar, ishlamagan- tosh tishlar”; “Ishlaganning og’zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar”; “Ishlik- ish kavlar, ishsiz- tish kavlar”; “tirishqoqning labi yog’liq, erinchoqning irni dog’liq” (irn - lab)”; “Tirishqoq mehnatsevar odam yaxshi- yaxshi yeydi, moy chaynaydi, labi yog’lik bo’lib yuradi. Erinchoq dangasa esa, ishlamay – kuchlamay, mablag’ topmay, birovdan tilanb, tamagir bo’lib, kezi kelsa odamlarning nafratiga uchrab, yomon otliqqa chiqadi. Doimo bir nima so’rashga o’rganib qolgan og’izdan biror so’z chiqadigan bo’lsa, “Obbo, yana tilanyapti-ya!” deb o’ylab, uning so’zini eshitgilari ham kelmay, ensalari qotadi”, deyilmoqchi. “Irni dog’lik ” deganining ma’nosu shu. “Ishlagan so’qim yer, ishlamagan to’qim yer” (so’qim- go’sht uchun semirtirib boqilgan qoramol. Maqolda: “ishlamagan odam muxtijlik balosiag yo’liqib, nima duch kelsa , shuni yeishga majbur bo’ladi” , degan fikr ”to’qim –

otning, eshakning to'qimini yer” deb mubolag'a qilingan); “Ish ohsga tortar, yalqovlik boshga tortar”; “ishchan oshini yer, dangasa boshini yer”; “bor, bor ishga bor, ishlamagan nonga zor”; “Ish qilganga – oqp-qop, qilmaganga – bo'sh qop”; “Ish tek turolmas, ishlamagn kun ko'rolmas”; “Ishdan qochding, oshdan qochding”; “qo'li o'ynaganning og'zi o'yanr, qo'li o'ynamaganning – ko'zi o'ynar”; “Qo'li o'ynagan , ya'ni, qo'lini harakatga keltiirib, mehnat qilgan odam mablag' topib, yemish yeydi. Mehnat qilmagan odam esa hech narsaga ega bo'la olmay, och qolib boshqalar yeyayotgan narsaga havasi kelib, ko'zini o'ynatadi”, deyilmoqchi); “Ishlamasang ish kuni , ne osharsan qish kuni?”; “Ishlagin ishni , qishda kiyarsan kishni, ishlamasang ishni titrab chiqarsan qishni”; (kish- suvsar mo'ynasidan tikilgan po'stin, yengil chiroyli, issiq va qimmat baho bo'ladi. “yaxshi ishlab yaxhsidaromad qilsang, qishga ana shunday issiq kiyim – kechaklar hozirlaysan, butun qsh bo'yi titrab qaqshab chiqmaysan”, deyilmoqchi); “Ishni yaxshi ishlasang, yaxshi- yaxshi yeyarsan, chala chulpa ishlasang, qishda yupun kiyarsan”, “yozda quldek ishla, qishda bekdek ye”, “yaxshi ishlasang to'ning bitar”; “Yaxshi ishlasang, oshingni yersan, yomon ishlasang, boshingni yersan”; “Eksang ekin- yersan tekin”; ”ekilganda ekmagan – o'rilganda yig'lar”; “Ishlab xorigan, tishlab xorimas”, shu kabi maqollarni kuzatishimiz mumkin.

Mazkur tadqiqotimiz doirasida uyg`ur va o`zbek tillarida mehnatga aloqador maqollar **semantikasi tahlil** etilar ekan, ular hosil qilgan **mazmuniy maydon o`ziga xosliklari – mos va farqli jihatlarini ham farqlashga harakat qildik.**

Quyida uyg`ur va o`zbek tillariga daxldor mehnatga aloqador xalq maqollari tashkil etgan mazmuniy maydonlarni tahlilini keltiramiz.

مېھنەت، ئۇنىڭ تەڭى راھەت.
(mehnat, uning tagi rohat)

Bu har bir insonning hayoti davomida ter to'kib, jafo va mashaqqat orqali haqiqiy huzur-halovat ya'ni baxtli, farovon hayotga erisha oladiganligini bildiradi. Insoniyat bosib o'tgan uzundan – uzoq yo'l mehnat jarayonidan iboratdir. Inson o'zining jamiki boyliklarini mehnat faqat mehnat tufaylidan yaratadi. Shu boisdan kishilar mehnatni qadrlaydilar, ulug'laydilar, yosh bo'g'irlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydilar. Shu boisdan jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi uyg'ur maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rnlardan birini egallaydi. Shu jumladan quyidagi maqol uning muqobil varianti bo'lishi mumkin; "Mehnat, mehnatning tagi-rohat" o'zbeklarda mazkur maqol chuqur ma'noga ega bo'lib, u o'zida ta'kid ma'nosini ham ifodalaydi. Agar e'tibor qiladian bo'lsak, uyg'urlar maqolida "***mehnat uning tagi rohat***" deyilyapti. O'zbeklar maqolida esa mehnat so'zidan keyin mazkur so'z yana bir bor takrorlanyapti, ya'ni "***mehnat uning tagi rohat***" emas balki "***mehnat, mehnatning tagi-rohat***" deyilyapti. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, bir gapda muayyan so'zning ikki marta takrorlanishi o'zida ta'kid ma'nosini jamlaydi. Shuning uchun biz o'zbek tilidagi maqolda ta'kid ma'nosining borligi sababli ma'no kengayishini kuzatishimiz mumkin.

Quyidagi maqollarni biz bir mazmuniy maydonning senonimik qatorini tashkil etuvchi tiplariga olishimiz mumkin

"ئەمگەك - بەخت بۇلىقى." (amgak - baxt buliqi)

"ئەمگەك يەردى قالماس" (amgak yarda qolmas)

"ئەمگەك بىلەن نىر كۆكىرە، يامغۇر بىلەن يىر" (amgak bilan ar ko`kirar, yomg`ur bilan yar) "ئەمگەك بار يەردى بەخت بار" (amgak bor yarda baxt bor)

"ئەمگەك قىلىپ تاپ بايلىق، خۇشال ياشا - چىرايلىق" (mgak qilip top boyliq, xushol yasha yasha - chiroyliq)

"ئەمگەك قىل غېرەت ۋە شجائەتتە، ياشايىمن پاراغەتتە "،
(amgak qil g`ayrat va shijoatda, yashaysan parog`atda)
"ئەمگەك قىلسات ئايرايىسىمن، ياغنى گۈچ - گۈچ چاينايىسىمن "،
(amgak qilsong yayraysan, yog`ni guch - guch chaynaysan)
"ئەمگەكىنىڭ ئىنى تاتلىق، ھورۇننىڭ جىنى (تاتلىق)"،
(amgakning neni totliq, ho`running jeni)
"ئەمگەك نۆمۈرنى ئۆزەرتىدۇ، ھورۇنلۇق يۈزۈگىنى قىزارتىدۇ "،
(amgak o`murni uzartidu, ho`runliq yuzungni qizartidu)
"ئەمگىگى ئازنىڭ كۈلكىسى ئاز، ئاز ئۇتۇققا بولما مەز "،
(amgigi ozning kulkisi oz, oz utuqqa bo`lma moz)
ئەمگەكتە ئېتىڭ چىقسا، ئەلده ياخشى كېپىڭ چىقار.
(amgakta eting chiqsa, alda yaxshi geping chiqar)
ئەمگەكتىن قاچما- رسقىڭى چاچما.
(amgaktin qochma – risqingni chochma)
ئەمگەكسىز بەخت يوق، كۆرەشىز تەختىت يوق.
(amgaksiz baxt yo`q, kurashsiz taxt)
ئەمگەكسىز تاپقان ئاشتن، ئىشلەپ تاپقان تاش ئارتۇق.
(amgaksiz topqon oshtin, ishlap topqon tosh ortuq)
ئەمگەكسىز ئالىم يامغىرسىز بۇلۇت.
(amgaksiz ilim yomg`irsiz bulut)
مېھنەت يىرده قالماس، مېھنەتسىز راھەت بولماسى.
Mehnat yarda qolmas, mehnatsiz rohat bo'lmas
"مېھنەت قانتىق، مېۋسى تاتلىق"
Mehnat qattiq, mevisi totliq
"مېھنەت باشلار گۈلستانغا، ھورۇنلۇق تاشلار گۈرۈستانغا"
mehnat boshlar gulistonga, ho`runliq tashlar go'rיסטونگ'a
"مېھنەت دوستى كۆپەيتەر، غىيىۋەت دۇشمەنلىق."
mehnat do'stni ko'paytar, g'iyyat dushmanni
"مېھنەتى بارنىڭ شۇھرىتى بار، شۇھرىتى بارنىڭ دۇلتى بار."

mehnati borning sho'hrati br, sho'hrati borning davlati bor
"مېھنەتتە ئالدىدا بولغان، مىننەتتەن نىرى بولار."

mehnatti oldida bo'lg'on, minnattin neri bo'lar
"مېھنەتكەشنىڭ سوغىسى بىلله، ھاراڭكەشنىڭ غوغىسى بىلله."

Mehnatkashning sovg'isi billa, haraqkashning g'ovg'isi billa
"مېھنەتسىز كىشى ئاغرسا ساقاييمەس."

Mehnatsiz kishi og'risa soqaymas

"مېھنەتسىز تاپقان مال – ھېساپسىز كىتىر."

Mehnatsiz topqan mol – hesopsiz ketar
"مېھنەتسىز ئۆمۈر – دات باسقان تۆمۈر."

Mehnatsiz o'mur – dot bosqon to'mur
"مېھنەتن قاچما، مىننەتتەن قاچ."

Mehnattin qochma, minnattin qoch

Mehnat , mehnatning tagi – rohat.

Insoniyat bosib o'tgan uzundan – uzoq yo'l mehnat jarayonidan iboratdir . Inson o'zining jamiki boyliklarini mehnat faqat mehnat tufaylidan yaratadi. Shu boisdan kishilar mehnatni qadrlaydilar , ulug'laydilar , yosh bo'g'irlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydilar. Shu boisdan jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi o'zbek maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rnlardan birini egallaydi.

“Yetmish go'zallikning biri mehnat”; “Go'zallik husnda emas, mehnatda”;
“Daryo suvini bahor toshirar , odam qadrini mehnat oshirar”; “Mehnat – rohatning poydevori”; “Rohatning onasi - mehnat”; “Obro'ning onasi - mehnat , otasi- sayi harakat”; “Odamni ish tanitadi”; “Yuk ko'targan yuzaga chiqar”; “Yuk ko'targanning yuzi yorug””; “Intilgan - elga yoqar”; “Mehnatdan do'st ortar ,

g’iybatdan - dushman”; “Ota urug’i birlashtirmas, mehnat yo’rig’i birlashtirar”; “Mehnat , mehnatning tagi ziynat”; “Halol mehnat huzur halovat”; “Halol mehnat mo’l daromad”; Halol mehnat – yaxshi odat , berur senga baxt saodat”; “Halol ishla, halol tishla”; “Suvsiz hayot bo’lmas , mehnatsiz rohat”; “Ot surinmay yo’l topmas, yigit urinmay mol topmas”; “Mehnatsiz rohat yo’q”; “zahmat chekmay rohat topilmas”; “Cheksang zaxmat, yog’ar rohat”; “Mehnat qilmay rohat ko’rmas, urug’ sepmay ekin o’rmas”; “mehnatsiz rohat bo’lmas , tashvishsiz - ne’mat”; “Azob ko’rmay, rohat yo’q”; “Hurmating - savlating , mehnating - davlating”; “xazina g’oyibdan emas , mehnatdan”; “Mehnat qilsang yasharsan , katta-katta osharsan”; “Oz yesang ko’p yashaysan , mehnat qilsang ko’p oshaysan”; “Mehnat qilib topganing - qandu asal- totganing”; “Mehnatdan kelsa boylik , turmush bo’lar chiroylik”; “Mehnatning ko’zini topgan , boylikning o’zini topar”; “Mehnat qancha qiyin bo’lsa , keti shuncha shirin bo’lar”; “Betashvish bosh qayda , mehnatsiz osh qayda ”; “Oson yerda osh qayda”; “Oson ishning oxiri bor”; “Xirmon yanchish sa’vaning ishi emas”; “Uchqundan qo’rqan temirchi bo’lmas”; “seni ish yengmasin , sen ishni yeng”; “Mehnat qilgan – ne yaxshi , unumin yegan undan yaxshi”; “Ishlab topganning oshi- lazzatlik”; “Olamdaa mehnat nonidan shirin narsa yo’q”; “ter to’kib topgan mol – husnga hol”; “Mehnatning noni shirin”; “Tekin topgan holva shirin, Mehnat bilan topganga non shirin”; “Mehnatsiz qo’lda – muhabbat qayda?!”; (Bu bilan; “er kishining muhabbati bo’lsayu, uning oqibatida yegulik, ichkulik, kiyadigan kiyguligi, maishati, rohat- farog’ati bo’lamasa, har qanday vafodor, sabr-chidamli yor ham bora-bora undan sovib, aynib ketadi” demoqchi bo’ladilar. Shu mazmunga mos “Pulsiz oshiq, qanotsiz qush” degan maqol ham bor); “Yer qazimasang, oltin chiqmas, qarmoq solmasang- baliq”; “Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas” (otiz- marza); “Tesha urmasa, yog’och yo’nilmas”; “Do’kon to’qisang bo’z bo’lar, charx yigirsang to’n bo’lar”; “Butamasang – meva oz, Tarasang , yersan qishu yoz”; “Bo’rining qornini oyog’i to’yg’azadi”; “Elning ko’rki er bilan, arning ko’ki ter bilan”; ”Bugungi qora ter, ertangi oq dur”; “Hosil zo’ri –

manglay teri ostida”; “Ter to’kkanga – qop-qop don, to’kmaganga – qayda don?!”; “Dehqonning xazinasi- yer, yerning kalidi ter”; “Ter to’kkanga yer to’kadi”; “Ter chiqmasa, etak to’lmaydi”; “Ter chiqqandan jon chiqmas”; “Ter chiqqandan dard chiqar”; “Ter to’ksang mard bo’lasan, to’kmasang mo’rt bo’lasan”; “Terga botgan – rohatga botar”; “Tek turmagan – to’q turar”; “Manglay teringga olingan mol- jingga hol”; “Mehnatsiz topilgan oshdan – mehnatda topilgan tosh yaxshi”; “Mehnatli osh osh bo’lur, mehnatsiz osh tosh bo’lur”; “Mehnatsiz umr - chirigan ko’mir”; “Mehnatsiz turmush - umrga hiyonat”; “Mehnatdan do’st ortar, g’iybattan dushman”; “Mehntda topilgan do’st ayrilmas”; “Do’st do’stni kulfatda sinar, odam odamni mehnatda”; “Ota urug’i birlashtirmas, mhnat yo’rig’i birlashtirar”; “Oltin o’tda chiniqar, odam- mehnatda”; “Uyqu tiniqtiradi, yumush chiniqtiradi”; “odamzodni ish ovutadi”; “Quruq so’z bilan osh pishmas”; “Mehnat qilmasang, iste’doding bekor”; “Mehnatga sabr qilgan, - rohatning taxtiga minar”; “Mardni mehnat yengolmas”; “Ko’p ishlagan - ko’p yashar”; “Yoshlikda mehnatga o’rgangan- qariganda rohatga uloqadi”; “Yoshlikdagi mehnat qarilikda davlat keltirar”; “Yoshlikda ishla qator, qariganda asqotar”; “Mehnat bilan qarisang, rohat bilan yasharsan”. Keltirilgan barcha misollar mehnating mazmuni va qirralarini ochib bergenlar.

Natijaviy xulosalarimizda shuni aniqladikki bu ikki xalqning barcha madaniy urf – odatlari, turmush tarzi biri – biriga boshqa xalqlarga nisbatan juda yaqinligi hech kimga sir emas. Shu sababli bu tafqiqimizda bu ikki tildagi farqlarga keladigan bo`lsak farqlar sezilarli darajada emas. Lekin uyg`ur tilidagi maqollarning ko`lami yadroga yaqin mazmuniy maydon o`zbek tiliga nisbatan kengligini biroz uchratdik.

2.2. Uyg`ur va o’zbek tilida maqollarning semantik-funksional guruhanishdagi o‘xhashlik va tafovutlar

Bizga ma'lumki, adabiyotlarda maqol atamasiga ta'riflar turlicha berilgan. Masalan, “Maqol—mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarini jamuljam etgan dono gap. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr - o`ylarining ifodasi sifatida yashab kelganlar. Sinalgan, turmush tasdig`idan o`tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar”¹⁴

Maqol haqida tilshunoslik terminlarining izohli lug`atida shunday ta'rif berilgan va misollar bilan isbotlangan. “Maqol chuqur ma'noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik, metodik xususiyatlarga ega bo`lgan folklor janri. Maqollarda xalqning ko`p yillik tajribalari, hayot hodisalarining ma'lum bahosi (unga munosabat) aks etadi. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. Sabr qilsang, g`o`radan holva bitar, besabrlar o`z oyog`idan yitar.”¹⁵

Maqol (arabcha – maqola, kichik asar; so`z, nutq) hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand nasihat mazmuniga ega bo`lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora gap.¹⁶

Mahmud Qoshg`ariy o`zining “Devonu lug`atit turk “asarida ko`plab xalq o`g`zaki ijodi namunalarini keltirgan. Jumladan, xalq qo`schiqlari, ertak va afsonalar, maqol va hikmatli so`zlar yozib qoldirganligi haqida asarni o`qigan chog`imizda bunga amin bo`lamiz. Asarda uchraydigan har bir maqol bugungi kunda ham o`z qimmatini yo`qotgani yo`q. Masalan: Ardam boshi til - Til (barcha) san`at - hunarning boshidir. So`zga suchunsa bulun barir. - Odam so`zning shirinligi bilan lazzatlansa, unga asir bo`lib ketadi. Mahmud Qoshg`ariy maqollarning qo`llanish o`rinlarini ham ko`rsatadi. “Suv ko`rmaguncha yetuk tartma” — Suv ko`rmasdan oldin etik yechma. Bu maqol ishlarda mulohazali bo`lishga undaydi. Oqil kishilarga nisbatan ishlataladi. “Keng to`n o`bramas,

¹⁴ O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. H. Razzoqov, T. Mirzayev, O.Sobirov, K.Imomov.

¹⁵ A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. Toshkent – 2002-yil, 62-bet

¹⁶ O`zbek tilining izohli lug`ati. Toshkent – 2006-yil, 2-jild, 569-bet

kengashlig biloig artamas.”—Keng to`n to`zimaydi, kengashli ish buzilmaydi. Bu maqol bir ish boshlashdan oldin boshqalar bilan kengashish, o`zboshimchalik qilmaslikka undab aytildi.¹⁷

Davr mobaynida kishilarning hayotiy tajribalari asosida maqollar yuzaga keladi. Maqollar qadim —qadimdan og`izdan- og`izga ko`chib kelgan. Maqolning qadimiy namunalari yuqorida ta`kidlaganimizdek, Mahmud Qoshg`ariyning “Devoni lug`atit-turk” asarida ko`plab uchraydi. Devonda turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar o`rin olgan.

“Devoni lug`tit –turk”da keltirilgan ayrim maqollar ba’zi o`zgarishlar bilan yoki hozirgi kunda ham aynan shu ko`rinishda qo`llanadi. Bu fakt o`zbek tilining juda qadim va boy tarixga ega ekanini yana bir karra isbotlaydi. Qadimda xalqimiz tilida ishlataligan quyidagi maqollarni sanab o`tamiz va bugungi kundagi ko`rinishiga e’tiborni qaratamiz. Misollar:

Emgak ekinda qolmas. (Mehnat yerda qolmas)

Osh totig`i tuz (Oshning ta’mi tuz bilan)

Qo`rwmish kishiga qo`y boshi qo`sh ko`rinur (Qo`rqqanga qo`sh ko`rinur)

It isirmas, ot tepmas dema. (It qopmas, ot tepmas dema).¹⁸

Shuningdek, eski o`zbek tili va yozuvida ijod qilgan ajdodlarimiz asarlarida maqollardan unumli foydalilanigan. Ayniqsa, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida 300 dan ortiq maqol borligi fanda aniqlangan va o`rganilgan.

Sintaktik va leksik jihatdan bugungi kunda o`zgarishga uchragan bo`lishi mumkin, lekin o`zining asl ma’nosи saqlanib qolgan. Gap bo`laklari yuzasidan tahlilda ham bunday qadimiy maqollarimizni chuqur tahlil etish lozim. Demak, maqol qaysi davrda bo`lmasin, shaklan o`zgarsa-da, o`zining purma’noligi o`zgarmaydi.

¹⁷B.To`xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova O`zbektili o`qitish metodikasi. Toshkent – 2006, 21-bet.

¹⁸N.Mallayev. O`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent – 1965-yil, 70-bet

Maqollar ko`p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida ifodalar ekan, ularda har bir so`zning ma`no xilmalligi, iboralarning turg`unligi, shakily barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo`llanish o`rniga qarab ularning ma`no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so`zga alohida e'tibor berish kerak. Ularda shunday so`zlar borki, bu so`zlar tarixan butunlay boshqa ma`nolarni anglatgan. Masalan, tuz so`zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so`z to`g`ri, odobli; dala, tekislik ma`nolarini anglatgan va faqat maqollardagina saqlanib qolgan: Qiz saqlasang, tuz saqla. Tuzdagি bilan emas, uydagi bilan bo`l. Shuningdek, mehnat so`zining azob – uqubat, baxtsizlik ma`nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin. “Davlat ham egiz,mehnat ham egiz”¹⁹

Xalq og`zaki ijodi namunalari bo`lgan maqollar qadim-qadimdan og`izdan-og`izga o`tib kelmoqda. Buni Xalq dostonlarida ham yuqoridagidek uchratishimiz mumkin. Ko`pincha ona tili darslarida, ya`ni sintaksis bo`limini o`tishda darslikdan tashqari “O`zbek xalq maqollari”²⁰ nomli kitobga murojaat qilinsa, maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu kitobda maqollar mavzu jihatdan deyarli barcha sohani qamrab olgan va tartibga solingan. Shuningdek, kitob so`ngida foydalanishimiz kerak bo`lgan maqollarda bizga tushunarsiz bo`lgan so`zlar izohi keltirilgan.

Maqol - mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarini jamuljam etgan dono gap. Ular qadimdan xalq hunarmandchiligi donishmandligi, aql-idroki, fikr o`ylarining ifodasi sifatida yashab kelgan; sinalgan, turmush tasdig`idan o`tgan

¹⁹ Qarang. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo`chqorov. 8-sinf Adabiyot darsligi, Toshkent, 2010-yil, 23-bet.

²⁰ O`zbek xalq maqollari , Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyyati, 2005-yil. (Tuzuvchilar: T.Mirzayev,A.Musoqulov, B.Sarimsoqov).

tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etgan. Maqollar ta’lim tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

U kishilarni ogohlantiradi. “Baxtingga ishonma barmog’ingga ishon.”

Maslahat beradi, ”Ish kuchini yelga berma, yerga ber, jamg’armani selga berma elga ber”.

Mehnatni ulug`laydi “Ishlaganning og`zi oshga tegar, ishlaganning boshi toshga tegar”.

Hajviy kulgi ostiga olib, fosh etadi “Og’zingni ko’kka ochma, halol mehnatdan qochma” va boshqalar.

O’zbek xalq maqollari uzoq davrlar mobaynida yashab, alohida janr sifatida shakllandi, avloddan –avlodga o’tib kelmoqda. O’tmish madaniy yodgorliklarida maqollar ko`plab uchraydi. XI-asr qomusiy olimi hisoblangan Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug`atit - turk” asarida keltirilgan maqollarda o`sha zamon ruhi, dunyoqarashi kishilarga mehnatga munosabatning turli xil shakllari o`z ifodasini topgan.

Maqollar sintaktik qurilishining tahlili shuni ko`rsatadiki, maqollarda ba’zi bir qurilmalar deyarli uchramaydi, ayrimlari esa keng tarqalgan bo`ladi.

مېھنەت، ئۇنىڭ تەڭى راھەت.

(mehnat, uning tagi rohat)

Bu har bir insonning hayoti davomida ter to’kib, jafo va mashaqqat orqali haqiqiy huzur-halovat ya’ni baxtli, farovon hayotga erisha oladiganligini bildiradi. Insoniyat bosib o’tgan uzundan – uzoq yo’l mehnat jarayonidan iboratdir. Inson o’zining jamiki boyliklarini mehnat faqat mehnat tufaylidan yaratadi. Shu boisdan kishilar mehnatni qadrlaydilar, ulug`laydilar, yosh bo’g’inlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydilar. Shu boisdan jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo’lgani kabi uyg’ur maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g’oyasi markaziy o’rinlardan birini egallaydi. Shu jumladan quyidagi maqol uning muqobil varianti bo’lishi mumkin; “Mehnat, mehnatning tagi-rohat” o’zbeklarda mazkur maqol

chuqur ma'noga ega bo'lib, u o'zida ta'kid ma'nosini ham ifodalaydi. Agar e'tibor qiladian bo'lsak, uyg'urlar maqolida "**mehnat uning tagi rohat**" deyilyapti. O'zbeklar maqolida esa mehnat so'zidan keyin mazkur so'z yana bir bor takrorlanyapti, ya'ni "**mehnat uning tagi rohat**" emas balki "**mehnat, mehnatning tagi-rohat**" deyilyapti. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, bir gapda muayyan so'zning ikki marta takrorlanishi o'zida ta'kid ma'nosini jamlaydi. Shuning uchun biz o'zbek tilidagi maqolda ta'kid ma'nosining borligi sababli ma'no kengayishini kuzatishimiz mumkin.

ئەمگەك يەردە قالماس.

(amgak yarda qolmas)

Bu har qanday bir ishga sarf qilingan harakat, singdirilgan mehnat hargiz bekor ketmaydi, kishiga huzur – halovat bag'ishlaydi, baxt ato qiladi, deyilmoqda. O'zbek tilida ham buning "mehnat yerda qolmas, oltin yo'lida" maqoli bilan nisbatan to'g'ri kelmoqda. Bu yerda ko`rib turganimizdek uyg`ur tilidagi maqolda amgak (ئەمگەك) so`zini qo`llanyapti, o'zbek tilida esa mehnat, bundan tushiniladiki amgak (ئەمگەك) so`zi mehnat so'zidan uyg'urlar hayotiga singib ketganligi ayon bo`lmoqda. Shuningdek yer so`zi yar (پەر) so`zi bilan farqli jihatli bor.

ئەمگەكىڭ ئىنى تاتلىق، ھورۇننىڭ جىنى (تاتلىق).

(amgakning neni totliq, horunning jeni totliq)

Bu jafo va mashaqqatdan qochmay ishlab erishgan ne'mat kishiga lazzat, huzur bag'ishlaydi, ish xush yoqmaydigan erinchoq odam och qolsayam bekor yurishni xohlaydi, degan manoni beradi. Shuningdek, o'zbek tilidagi "**Mehnatning noni shirin, yalqovning joni shirin**" maqoli bilan mos tushadi.

ئەمگەك بىلەن ئەر كۆكىرمۇ، يامغۇر بىلەن يەر.

(amgak bilan ar ko'kirar, yomg'ur bilan yar)

Bunda mehnat insonlarga baxt ato qilishi, mehnat qilgan, ishlagan odam shod – xurram yashaydi, suv va yomg'ir hayvonotu nobotot uchun hayot bag'shaydi, suvu – yomg'irga qongan yer yashillilikka burkanib, chamanzorga

aylanadi, degan ma'noni bildiradi. Buning o'zbek tilidagi muqobil varianti “*Mehnat bilan yer ko 'karar, duo bilan el*” ga mos tushadi.

ئەمگەك قىلساڭ ئاتقىڭ چىقار، قىلمىساڭ چاتقىڭ چىقار.

(amgak qilsang otiqing chiqar, qilmisang chatiqing chiqar)

Bu mehnat qilgan, ishlagan odam oz erishgan yutuqlaridan huzurlanib, shod xurram, kongullik yashab, shon – shuhrat va yaxshi nom qozonadi; mehnatni hohlamaydigan, ishlamaydigan, ishdan qochadigan odam dangasa fel atvori bilan kishilarga ovorachilik, mushkulot tug'diradi degan ma'noni bildiradi.

ئەمگەك قىلساڭ – يەر سىخى.

(amgak qilsang yar sexi)

Bu insonlar uchun tugamas bir boylik. Har kim jafodan qochmay, yerga mehr bilan ishlasa, manfaatga erishadi, hargiz quruq qo'l va noumid qolmaydi, degan ma'noni bildiradi.

ئەمگەك ئىشتەي ئاچەر، ھورۇن ئىشتىن قاچار.

(amgak ishtay ochar, ho'run ishtin qochar)

Har qanday insonning harakati ya`ni mehnati, hunari, dehqonchilik soha bo`ladimi yoki boshqa sohalarda biror mehnat bilan shug`ullansa insonni ishtahasi ochilib ozuqa olishi kuchayadi, dangasa esa buning aniq bir aksi hiisoblanadi. Buning o'zbek tilidagi o'xshash varianti “ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar” maqoli bilan mos tushadi. Tahlilga keladigan bo`lsak, odatdagidek mehnat so`zi amgak s`zi bilan, ishtaha so`zini uyg`urlar ishtay (ئىشتەي) so`zidan foydalangan. O`zbek tilida yalqov va dangasa so`zlarining o`rniga ho`run (ھورۇن) so`zidan foydalananilar.

ئەمگەك قىلىپ تاپ بايلق، خۇشال ياشا – چىرايلق.

(amgak qilip top boyliq, xushol yasha - chiroyliq)

Insoniyat hayotida mehnat singdirgan odamning ajri, mukofotini albatta olishligini ko`rsatmoqda. Mehnat, hunar qilib mol topsang, topgan rizqing o`zing uchun qadrli va mazali tuyiladi. Mazkur maqol o'zbek tilidagi “Mehnatdan kelsa

boylik, turmush bo`lar chiroylik” maqoliga mazmunan mos keladi va quyidagi jihatlari bilan farq qiladi.

Bu uyg`ur tilidagi maqolda inson mehnat qilib boylik topadigan bo`lsa, xushhol va chiroyli hayot kechirishi muqarrar ekanligi ta`kidlanadi. O`zbek tilidagi maqolda esa ma’no bir muncha sustroq ya’ni unda insonni ochiqdan – ochiq mehnatga buyurish holati kuzatilmaydi. O`zbek tilidagi maqolda insonga maslahat yoki nasihat ruhi seziladi. Quyidagi maqol ham bunga yaqin ma’no berishi mumkin:

ئەمگىڭي ئۆنۈملۈكىنىڭ تۈرمۇشى كۆڭلۈلۈك.

(amgigi o’numlukning turmushi ko’ngulluk)

ئەمگەك – ھالاۋەت، ھورۇنلۇق - ھالاكەت.

(amgak – halovat, ho’runluq - halokat)

Mazkur maqolda mehnatning darajasini, uning qadr qiymatini aniqlab bermoqda. Mehnat qilganning qalbi halovatda, osudalikda yashashini ko`rsatmoqda, aksini oladigan bo`lsak, mehnat bilan erishadigan barcha mukofotlardan quriq, hissasiz qolishi, halokatga yuz tutishini bildirmoqda. Bu o`zbek tilidagi “mehnat halovat keltirar, yalqovlik halokat” maqoli bilan mos tushadi. Uyg`ur tilidagi maqolda yalqov, dangasa so`larini o`rniga ho`run (ھورۇن) so`zini qo`llashmoqda.

ئەمگەك قىل غەيرەت ۋە شىجائەمته، ياشaysan پاراغەمته.

(amgak qil g`ayrat va shijoatta, yashaysan parog’atta)

Uyg`ur va o`zbek maqollarida boshqa turkiy tillarga nisbatan farqli jihatlarni uchratish holati kam uchraydi. Jumladan mazkur maqolda ham mehnatni doim mehr va chin ko`ngildan g`ayrat va shijoat bilan qilsang uning keladigan natiasi, foydasi ulkan bo`lishini isbotlamoqda. Bu esa o`zbek tilidagi “mehnat qil g`ayrat va shijoatda, yashaysan farog`atda” maqoliga mos kelishini kuzatamiz.

ئەمگەك ئۆزۈرنى ئۇزەرتىدۇ، ھورۇنلۇق يۈزۈڭنى قىزارتىدۇ.

(amgak umurni uzartidu, ho'runliq yuzungni qizartidu)

Mazkur maqolda mehnatning, harakatning natijasi inson uchun eng katta ne'mat bo`lgan umriga ta`sirini ko`rsatmoqda. Odama turli xil kasalliklarga davo bo`la olishini anglatyapti. Buning teskarisi esa sog`, salomat insonni ham harakati, qiladigan biron bir kasb – hunari, mehnati bo`lmasa, uni kasallikka olib kelishini, uqtiradi. Buni azaldan ota bobolarimiz bizlarga meros qilib qoldirganliklari bejiz emas. Bu maqolning o`zbek tilidagi “mehnat umrni uzaytiradi” variantiga ma'nodosh bo`lishini kuzatamiz. Uyg`ur tilidagi maqolning ikkinchi qismi borligi, unda dangasalik haqida so`z boryapti. Dangasa inson doim yuzi qizarish holatiga duchor bo`lishligi muqarrarligi ayon bo`lmoqda.

ئەمگىقى قىيىن- شەربىتى شىرىن.

(amgigi qiyin – sharbiti shirin)

Bu maqol har qanday ishning, mehnatning yetarlicha mashaqqat, qiyinchiligi bo`lishi, qancha qiyin mehnat bo`lsa shuncha uning rohati bo`lishini ko`rsatyapti. Bu o`zbek tilidagi “mehnat qancha og`ir bo`lsa, keti shuncha shirin bo`lar” maqoliga juda ham yaqin mazmunda ekanligini ko`rishimiz mumkin. Yuqoridagi uyg`ur tilidagi maqolda qiyin mehnatning natijasi shirin, sharbati yohud rohat bo`lishi haqida so`z boryapti. Agar uyg`ur va o`zbek tilidagi maqollarni qiyoslaydigan bo`lsak, unda quyidagi farqlarni kuzatamiz, uyg`ur tilidagi maqolda mehnat og`ir bo`lsa uning sharbati shirin deyilmoqda, o`zbekchadagi maqolda esa mehnat qancha og`ir bo`lsa uning keti shuncha shirin bo`lar degan gapni ko`rib turibmiz. Uyg`ur tilidagi sharbat so`zi o`rniga keti ya`ni natijasi degan so`z qo`llanyapti.

ئەمگەكتىن قاچما- رسقىڭنى چاچما.

(amgaktin qochma – risqingni chochma)

Mazkur maqolimizda insonning ne'mati bo`lmish rizq ne'matining kelishi ham xudo tomonidan bo`lishi, har bir insonning harakati, mehnati evaziga yarasha

rizqi berilishini tushuntirmoqda. Agarda rizq topish uchun sa'y harakat, mehnat qiladigan bo'lsa, albatta rizq ne'matiga sazovor bo'lishi, mehnatdan qochgan, harakati yo`q odam esa rizqini sochishligi mumkinligi ta'kidlanyapti. Bu maqol ham o'zbek tilidagi "mehnatdan qochma, rizqingni sochma" maqoli bilan juda ham yaqin ma'nodosh hisoblanadi. Faqatgina uyg'ur tilidagi maqolda mehnat so'zining o`rniga amgak (ئەمگەك), sochma so`zini uyg`urlar chochma (چاچما) so`zidan foydalanganligidagi farqini kuzatishimiz mumkin.

ئەمگەكىز بەخت يوق، كۆرەشسىز تەختت يوق.

(Amgaksiz baxt yo'q, kurashsiz taxt yo'q)

Bu maqolda ham insonning farog`atga, baxtga erishishi yo'llaridan biri mehnat ekanligini ko`rsatmoqda. Shuningdek, barcha erishiladigan yutuqlarga ham harakati mehnati sabab erishishi ko`zda tutilmoqda. Mazkur maqolga o'zbek tilidagi "mehnatsiz baxt kelmas, mashaqqatsiz taxt kelmas" maqoli bilan ma'nodosh deb olishimiz mumkin.

ئەمگەكىز تاپقان ئاشتن، ئىشلەپ تاپقان تاش ئار تۇق.

(Amgaksiz topqon oshtin, ishlap topqon tosh ortuq)

Yuqoridagi maqolda aytib o`tganimizdek mehnatning beradigan osh – u, noni albatta inson qalbiga orom baxsh etadi. Lekin buning aksi esa odam iztirobda qoldiradi, degan ma'noni anglatmoqda. Mazkur maqolning o'zbek tilidagi o`xshash variantiga "mehnatli osh – osh bo`lar, mehnatsiz osh – tosh" maqoli bilan nisbatan mosligini kuzatishimiz mumkin.

ئىشى تىزنىڭ ئىشى تىز.

(ishi tezning oshi tez)

Bu maqolda har qanday ishni epchillik bilan chaqqon harakat qilgan kishining yeydigan oshi tayyor, deyilmoqda. Bu maqolga o'zbek tilida aks holatini kuzatishimiz mumkin. Masalan: "ishi kechning kuni kech".

ئىش ئۈستىسىدىن قورقار.

(ish ustasidan qo'rkar)

Bu qo'li epchil, biron bir kasb hunarga mohir, har qanday ish undan qochib qutila olmaydi va duch kelgan ishni mohirona bajaradiganlar tog'risida so'z bormoqda. Bu esa o'zbek tilida o'zgarishsiz "ish ustasidan qo'rkar" maqoli bilan kuzatishimiz mumkin. Har qanday kasb – hunar egasi, biron bir sohaning mutaxasisi bo'lgan inson qilayotgan ishini, mehnatini qoyilmaqom qilib bajarishini mumkinligini ko`rsatmoqda. Bunda bu ikki maqol juda ham o`xshashdir.

ئىش ئىشتەپىنى ئاچىدۇ.

(ish ishtayni ochidu)

Bu maqoldan ish – mehnat bilan shug'ullangan kishining turmushi yaxshilanadi, oshqozoni sozlashib, ishtahasi ochiladi, degan ma'no anglashiladi. Bu maqol o'zbek tiliagi "ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar" maqoliga mos keladi.

ئىشى يوق ئىت سۈغىرار.

(ishi yo'q it sug'irar)

Bu hechqanday kasb hunar yoki mehnat bilan shug'ullanmaydigan insonning qiladigan ishi, u paytda uning vaqtı bekorchilik bo'lib qoladi. Buni ham o'zbek tilida "ishi yo'q it sug'orar" maqoli bilan o'zgarishsiz kuzatishimiz mumkin.

ئىشى يوقنىڭ ئىشى يوق.

(ishi yo'qning eshi yo'q)

Bu maqol bilan insonning turmush – tarzi osoyishta bo'lishining kafolaatiga mehnat, ish, kasbning ahamiyati qanchalik muhim ekanligini bilishimiz mumkin. Bu esa o'zbek tilidagi "ishsiz – boshim, ohsiz - boshim" maqoli bilan ma'nodosh bola oladi.

ياز بولسا، قىش بولمسا، ئاش بولسا، ئىش بولمسا.

(yo'z bo'l'sa, qish bo'l'misa, osh bo'l'sa, ish bo'l'misa)

Bu ish hush yoqmaydigan, ishlamay rohat ko'rishni izlaydigan, tayyorga ayyor kishilarining psixikasini bildiradi. Bu esa o'zbek tilida mazmunan yaqin bo'lgan "ishchan tilagi – tong ota qolsa, erinchoq tilagi – kun bota qolsa" maqol

deb tanlab oldik. Mehnatdan, ishdan o`zini olib qochmaydigan insonning hayoli, dardi ish, mehnat bo`ladi, dangasa yalqovlarga esa har qanday yengil mehnat ham mashaqqatdek tuyiladi. Uyg`ur tilidagi maqolda qishning mashaqqatidan qo`rqan doim yozni hohlaydi, dangasalarga eng ma`qul bo`ladigan yeb, ichish, dam olish bo`lsa uning qilgan katta mehnati shu ekanligini ko`rsatmoqda. O`zbek tilidagi maqolda ham mehnatkashning noyob va qadrli hislatlarini ochib bermoqda. U kuni bo`yi ishlab ham tunning tezroq tugashini intori ekanligini, yalqovlar esa juda ham qiyin mashaqqatli bo`lgan orom va hordiq chiqarishdek ishlarni intizori ekanligi isbotlamoqda.

ئىشلەنگەمنىڭ يۇزى يورۇق، ئىشلەمدىگەمنىڭ يۇزى چورۇق.

(ishlaganning yuzi youq, ishlaganning yuzi cho'ruq)

Bu ishdan qochmaydigan samimi odam hamma joyda, har xil vaziyatda ishdan qochmaydigan inson doim, hamma joyda qadrlanadi; dangasalikni odan qilgan kishi xorlikda qoladi, degan ma`noni bildiradi.

ئىشنىڭ ئاسىنى يوق، قىلالىسالىڭ قىيىنى يوق.

(ishning osoni yo'q, qilolsang qiyini yo'q)

Bu ishning hammasi jifo, mashaqqatlik va mushkul bo`lishligini, ishslashni epini bilgan, ishchan, mehnatkash insonga hamma ish oson kechishini bildiradi.

ئىشلەنگەنىڭ ئىشى پۇتەر، ئىشسىزنىڭ كۈنى نۆتەر.

(ishlining ishi putar, ishsizning kuni o'tar)

Bu mehnat qilishni or bilmaydigan ishchan odamning turmush ehtiyoji qoniqarli kechadi, aksincha, hech bir ishni eplolmaydigan dangasa inson yo`qchillikdan qutula olmaydi, degan ma`noni bildiradi. Bu esa o`zbek tilida “ishlaganning ishi bitar, kishnaganning kuni o’tar” maqoli bilan mazmunan ma`nodosh kelishini kuzatamiz.

“ئىشلەنگەن چىشلىدۇ”

(ishligan chishlaydu)

Bu halol ter to'kishdan erinmagan odam mehnatining halovatini ko'rib, farog''atda yashaydi, degan ma'noni bildiradi. Bu maqolning uyg'ur tilida kengaygan varianti quyidagi maqol misolida ko'rishimiz mumkin.

“ئىشلىسىمەڭ ئالىسمن قاپلاب ئاش، ئىشلىمىسىمەڭ قالىسمن چايىناب تاش.”

(ishlisang olisan qoplab osh, ishlimisang qolisan chaynap tosh)

Bu ish, mehnat qilgan kishi qilgan mehnati evaziga erishadigan rizqini oladi, aksincha hechqanday harakati, mehnati bo'lmasa quruq qolishi tayinligini bildiradi. Bu o'zbek tilidagi “ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar”, “ishlagan tishlar, ishlamagan kishnar” maqollari bilan muqobilligini kuzatishimiz mumkin. Uyg'ur tilidagi maqolda mehnat, harakat qilgan, mehnati, harakatiga nisbatan ko`proq hissaga erisha olishini uqtirmoqda. Aksincha ishlamagan odam har narsadan hissasiz qolishi ayon bo`lmoqda.

ئىشچاندىن تەر چىقىپتۇر، ھورۇندىن "ئۇھ".

(ishchandin tar chiqiptu, ho'rundin "uh")

Bu ishdan qochmaydigan ishchan odam sog'lom va mag'rurlik bo'ladi; ish xush yoqmaydigan, bekorchi odam kasalman, nozik bo'ladi, degan ma'noni bildiradi.

ئىش قورالىڭ ساز بولسا، مۇشاققىنىڭ ئاز بولار.

(ish quroling soz bo'lsa, mushaqqiting oz bo'lar)

Bu har qanday ishda asbob – uskunaning ro'li juda katta ekanligini, asbob–uskuna yaxshi soz bo'lsa, mushkul ish ham og'irligi bilinmasligini bildirib, o'zbek tilidagi “ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz b'alar” maqoli bilan o'xshashligi ko'riniib turibdi.

. 1. ئىش ئاشقا تارتىدۇ، ھورۇنلۇق باشققا تارتىدۇ.

(ish oshqa tortidu, horunliq boshqa tortidu)

Bu maqolda ishlagan odam to'kin – sochin va xotirjam yashaydi; ishni yoqtirmaslik va bekorchilik kishini harob qiladi. Bu esa o'zbek tilidagi “ish oshga tortar, yalqovlik - boshga” maqoli bilan mos keladi. Bundan ko'riniib turibdiki,

uyg'ur tilida هورۇنلۇق (horun) so'zini qo'llagan, bu esa o'zbek tilidagi yalqov, dangasa so'zlariga mos keladi.

ئىش بار يەرددە ئاش بار.

(ish bor yarda osh bor)

Bu ishdan qochmay, bosh ko'tarmay ishlaydigan kishilar har doim och qolmaydi, turmushi xotirjam, to'kin sochinlikda o'tadi, degan ma'noni bildirib o'zbek tilida bu "ish bor yerda osh bor" degan maqol bilan hech ham farq qilmagan holatini kuzatishimiz mumkin.

كىشىنىڭ ئاغزىغا قارىغان ئاچ قالار.

(kishining og'zig'a qarag'an och qolar)

گەپدان بولغۇچە، ئىشچان بول.

(gapdon bo'lg'ucha, ishchan bo'l)

گەپ دىسەڭ قاپ-قاپ، ئىش دىسەڭ سامانلىقتىن تاپ.

(gap desang qop – qop, ish desang somonliqtin top)

گەپ يەرددە ئەممەس، ئەرددە.

UMUMIY XULOSALA

Xalq hikmatini o`zida jamlagan, uzoq tarixiy voqelikka daxldor folklor janridan biri maqoldir. Maqollarni tilshunoslik nuqtai nazaridan ikki tilda qiyoslab o`rganilishi, o`rganilayotgan har ikki til uchun ham nazariy ham amaliy ahamiyatga molik.

Maqollar donishmandlik ramzi, ular o‘quvchi va tinglovchilarni fikrni chuqur, ixcham, aniq va obrazli qilib ifodalshga o‘rgatadi, kishilarni, ayniqsa, yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashda muhim vosita vazifasini o‘taydi.

Uyg`ur va o`zbek xalq maqollarini o`rganish va tadqiq qilish jarayonida mehnat bilan bog`liq maqollarga keng o`rin berilganligiga va mehnatsevarlik, ishchanlik, dangasa, yalqovlik, kasb – hunar, dehqonchilik va chorvachilik, jafo – mashaqqat kabi hislatlarga alohida e’tibor qaratilganligiga guvoh bo`lamiz.

Uyg`ur va O`zbek xalqlarining azaldan keladigan asosiy ozuqaviy ta’mnotinining o`zagi mehnatdanligini xalq maqollari orqali yaqindan bilishimiz mumkin. Xalqimiz qo`llaydigan maqollarda ham uyg`ur maqollaridagi kabi farqli jihatni nisbatan kam uchrashligini uchratishimiz mumkin. Ular orasidagi ijobiy va salbiy munosabatlar ochiq oydin keltirib o`tiladi. Maqollarning asosiy maqsadi tarbiya berish bo`lganligi uchun achchiq so`zlardan foydalanishdan ham qochilmaganligining guvohi bo`lamiz.

Bitiruv malakaviy ishimizda o`zbek va uyg`ur xalq maqollarining o`rganilish ko‘lamini, o`rganilganlik darajasini ko‘rib chiqdik. Bu ikki qardosh millatning eng dolzarb va kengqamrovli maqollari sirasiga kiradigan mehnat mavzulari, ularning farqli va o‘xshash jihatlari ochib berish ishimizning asosiy maqsadini tashkil etdi. Ishimizda mavzuga doir faol deb topgan maqollarimizni izohlashga, ma’nolarini ochib berishga urindik.

Maqollarni qiyoslab o`rganish jarayonida mazmuniy maydon nazariyasи doirasida fikrlab, tahlilga tortilgan maqollarga nisbatan uni qo`llashga harakat qildik. Misollarimizni mazmuniy maydonni tashkil etishi nuqtai nazaridan o`rgandik.

Maqollarni qiyosiy tadqiq qilish maqollarning ochilmagan qirralarini ko`rsatib berishga va xalqlar madaniyatini va maqollar vositasida til xususiyatlarini o`rganishga imkon beradi deb o`ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

UYG'UR TILIDAGI ADABIYOTLAR

1. ئىلهاام نىزام، مۇھەممەد رەھىم. ئۇيغۇر خەلق ماقال – تەممىسىلىرى. شىنجان خەلق نەشرىياتى. 1979 - يىل 2 - ئاي.
2. رەشىد ۋاهىدى، ئابدۇۋەلى خەلپەت. مارجان سوزىلەر. (چەت ئەل ماقاللەرىدىن) مەللەتلىرى نەشرىياتى، 1980- يىل، 3 - ئاي
3. مەھمۇت قەشقەرى (ماقالىلار تۆپلىمى) م. زۇنۇن سىدىق، ئابدۇرۇسۇل ئۆمەر، شخ نەشرىياتى 1985 - يىل
4. ئۇيغۇر خەلق ماقال - تەممىسىلىرى - مۇھەممەد ئەللى ساپىت 2000 - يىل ئورۇمچى
5. ئابىز ئەمەت. ئۇيغۇر خەلق ماقال – تەممىسىلىرى ئىزاھلىق لۇغىتى. قەشقەر ئۇيغۇر نەشرىياتى 2001- يىل ئىككىنچى ئاي.
6. ئالىم ھەمتت ۋە ئايگۇل تۈرسۈن. ئۇيغۇرچە – خەنزۇچە ئۇيغۇر خەلق ماقال تەممىسىلىرى. بىيىجىڭ مەللەتلىرى نەشرىياتى. 2006- يىل 4- ئايدە.
7. ئۇيغۇر خەلق ماقال – تەممىسىلىرى — ئىزىز ئاتاۋۇللاھ سارتىكىن 2007 – يىل ئورۇمچى

O'ZBEK TILIDAGI ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov " Barkamol avlod orzusi. Toshkent, "O'zbekiston" 2000-yil
2. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", Toshkent "Ma'naviyat", 2008-yil
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 14-jild
4. Maxmud Qoshg'riy Devonu lug'atit turk .III.tom,T.,1963
5. O.Madayev. T.Sobitova O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.T. "Sharq" 2001

6. Imomov K. Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Sarimsaqov B. Safarov O. ijodi. T. "O'qituvchi" 1990.
7. Sarimsoqov B. Maqollar // O'zbek folklorining ocherklari. Toshkent , t. 1, 1988, 95-98 betlar.
8. O'zbek xalq maqollari. Ikki tomlik. Toshkent, 1988-1989.
9. Abdurahmonov M. O'zbekcha-ruscha aforizmlar lugg'ati.- T., 1976.
A. G`ulomov, M. Asqarova, Hozirgi zamon o'zbek tili , Sintaksis, 1962-yil
10. Aql aqldan quvvat oladi: (Hikmatli so'zlar, aforizmlar va maqollar) To'plovchi va tuzuvchi M. Fozilov, - T., 1967.
11. Веселовский Н. И. Пословцы туземного населения Туркестанского края. Рецензия // Записки Вост. Отд. Русск. Арх. Общ-ва. Т. 3. СПб., 1889.
12. Гордлевский В. А. Замечания на "пословицы крымских татар" // Изд. П. А. Фалевым // записки вост. Отд. Русск. Арх. Общ-ва. Т. XXV.- вып. 1-4.- М., 1921.
13. Gulxaniy . zarbulmasal va g'azallar. Т ., 1960.
14. Даль В. И. О русских пословицах // современник. – 1847. - №6.
15. Калонтаров Я. И. Tojik maqollari va ularning o'zbekcha muqoyasasi. Dushanba, 1969.
16. Остроумов Н. П. Несколько замечаний относительно пословиц и поговорок сартов // Остроумов Н. П. сарты, этнографические материалы.- вып. 3. пословицы и загадки сартов.- Т., 1895.
17. Перетц В.Н. Из истории пословицы: Историко – литературные заметки и материалы. СПб., 1898.
18. Samadov Q. Maqollarimiz moxiyatiga doir // o'zbekiston madaniyati.- 1965. -5 iyun.
19. O'zbek xalq maqollari: ikki tomlik.- T., 1987; 1988.
20. Qobusnoma / Ogahiy tarjimasi. T., 1967.

21. O`zbek xalq maqollari, Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005-yil. (Tuzuvchilar: T.Mirzayev,A.Musoqulov, B.Sarimsoqov).

Internet saytlar

22. <http://www.ziynet.uz/ru/library/libid/10000/offset/720>
23. <http://www.anwar.cn/member.php?2133-%D9%85%DB%87%D9%86%D9%89%D8%B3%DB%95&s=0bbf54294f0d73c2c6c0418a5e9772a0>
24. http://uy.ts.cn/wenxue/content/2010-12/02/content_115423.htm
25. <http://bbs.almizar.com/forum.php?mod=viewthread&tid=4296>
26. <http://www.aplisin.com/posts/2027>
27. <http://www.bilimlar.com/ud/forum.php?mod=viewthread&tid=6753>
28. <http://www.anatil.org/html/402.html>
29. [www.ziyouz.com kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)